

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**MAKTABGACHA TA`LIM METODIKASI KAFEDRASI**

# **MAKTABGACHA PEDAGOGIKA**

**O'QUV- USLUBIY MAJMUA**



**Termiz – 2018**

O‘quv uslubiy majmua fanning ishchi o‘quv rejasi va hamda Universitet Kengashi tomonidan 2018 yil \_\_ \_\_\_\_dagi \_\_- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturiga muvofiq tuzilgan.

Tuzuvchi:

M.Norbosheva -Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Norbosheva - Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent.

F.Yuldasheva - Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Termiz davlat universiteti O’quv-Uslubiy Kengashining 2018 yil 28.08 dagi 1-yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

## MUNDARIJA

Nº	O'quv-uslubiy majmua bo'limlari	bet
1.	Ma'ruzalar matni	
2.	Amaliy mashg'ulotlar	
3.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	
4	Glossariy	
5.	Ilovalar	
5.1.	Fan dasturi	
5.2.	Ishchi fan dasturi	
5.3.	Tarqatma materiallar	
5.4.	Testlar	
5.5.	Baholash mezonlari	

**I.Ma'ruzalar matni**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**


**PEDAGOGIKA FAKUL'TETI**

**MAKTABGACHA TA`LIM METODIKASI KAFEDRASI**

# **Maktabgacha pedagogika**

**modulidan**

**MA`RUZALAR MATNI**



**Termiz – 2018**

Mazkur ma`ruzalar matni 5111800-Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 1-kurs talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, undan talabalar hamda o`qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: kat. o'qit. M.O.Norbosheva

Mazkur ma`ruzalar matni Pedagogika fakulteti ilmiy-uslubiy Kengashining 2017 yil \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etilgan.

«Diplomga ega bo`lish-bu hali tom ma`nodagi ziyoli emas. Ziyoli odam o`z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo`lakcha inson bo`ladi».

*O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom KARIMOV.*

## **1-MODUL.MAKTABGACHA TA'LIMGA KIRISH**

### **1-MAVZU:MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING PREDMETI VA VAZIFALARI**

**Reja :**

1. Maktabgacha pedagogikaning predmeti
2. Maktabgacha pedagogikaning vazifalari

*Tayanch tushunchalar: barkamol shaxs, maktabgacha ta'limga tarbiya, pedagogika.*

Maktabgacha pedagogikaning predmeti va uning vazifalari

Insonni har tamonlama barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo`lib, ajdodlarimiz ma'rifikat, ma'naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o'rgatish - ularni komillikka etakiash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasii izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini maydonga kelishiga sabab bo`lgan. CHunki insonni ma'rifikatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining etakchiligidagi amalga oshiriladi.

Pedagogika - grekcha so'z bo`lib, «bola yetaklovchi» - ma'nosini bildiradi. Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarni o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeiga ega bo`ldi. SHu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rinni egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ta'limga tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgani holda, uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, kohinlar tomonidan bolalarning ta'limga tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta'limga tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o'qish vayozishga o'rgatish.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziyy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid - Cho'lpon, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug' olimu adiblar, fozilu-fuzalolar ta'limga tarbiya borasida ko'p asarlar bitganlar.

SHarq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asari, Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub»i, Kaykovusning «Qobusnomá»si kabi asarlar bunga dalildir.

Mazkur ta'limiy asarlarda inson shaxsini ma'naviy kamolga etkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallah asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g'oya ilgari surilgan.Haqiqiy bilimga asoslangan ta'limiy uslub shakllanadi.natijada ta'lim-tarbiya olimlar diqqat markazida bo'ldi.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim- tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning bilimlarni egallah yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e'tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida e'tirof etiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishining birinchi mezoni sanalgan bilim egallahga da'vat etadi.Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular etuk bo'limgan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda boialarni engidan og'irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi, bilim berishda bolani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi.

Pedagogik fikrni rivojlanishida rus pedagogi K.D.Ushinskiyning pedagogik, nazariy qarashlari «Inson tarbiya predmeti sifatida» degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblari barchaga yaxshi ma'lum bo'lib, u ta'limning ko'rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi.

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi YAn Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Undan tashqari «Onalar maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo'llanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi.Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog'bon daraxtning biologik o'sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi.Komenskiy o'qishga hammaning tortilishini, hamma umumta'lim olishi kerakligini uqtiradi.

Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilinganiga qadar ham biz maktabgacha tarbiya to'g'risida fikr yuritib kelganmiz.Bugun esa bu masalaga yangicha yondashmoqdamiz. Zero dasturimiz talablariga asosan maktabgacha ta'lim turi - bolani maktabga tayyorlash bilan birga, uni sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlaydi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Misol tariqasida oilaviy ta'limning ko'rinishlaridan biri «Davlat MTMlari», «Nodavlat MTM» larini keltirish mumkin. Bolalarga xoreografiya, tasviriylar va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. Bularning hammasi maktabgacha yoshdag'i farzandlarimizni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlanadi. Maktabgacha ta'lim shaxsni sog'lom va etuk qilib tarbiyalab, maktab ta'limiga tayyorlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida olib boriladi.

Yangi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgachata'lim vazirligifaoliyatinitashkiletishto'g'risida»gi **qarori** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son

«2017

— 2021

yillarda maktabgachata'limtizimi niyanada komillashtirishchora-tadbirlarito'g'risida»gi **qaroriga** muvofiqbuyuraman:

1.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgachayoshdagibolalar rivojlanishi gaqo'yiladig'an Davlattalablari tasdiqlandi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunga qadar bo'lgan davrda har tomonlama etuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining muvzuidir. U maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, boialarni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chikdi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi pedagogika fanlar tizimida uning ajralmas qismi bo'lib shakllandi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdag'i bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog'lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga asoslanadi.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik xodisa sifatida o'rganib, bir qator tushunchalarni o'z ichiga oladi. Pedagogikada tarbiya, ta'lim, ma'lumot asosiv tushunchalar hisoblanadi.

2. Maktabgacha tarbiya pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi jamiyat va insonni o'rganuvchi fanlar bilan chambarchas bog'iangan. Pedagogika ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o'rganar ekan, sotsiologiya, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, umumiyyet pedagogika fanlari, falsafa bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki mazkur fanlar tarbiyaning maqsadi va vazifalarini o'rganish metodologiyasini belgilaydi. Jamiyat to'g'risidagi materialistik falsafa tarbiya masalasiga asoslangan holda yondashish imkonini beradi.

**Tarixiy materialism** pedagogik tarbiyaning infiy mohiyati no chibberish, uning paydobo'lishi varivojlanishi jijtimoiyxodisa ekanligini, jamiyathayotida vakish shaxsining rivojlanishi datarbiyaning rolini boshlashgay ordambera di. Didaktik masalalar ni ishlab chiqishda pedagogika bilish nazariyasiga suyanadi, axloqiy tarbiya masalalarini o'rgatishda pedagogika etikaning axloq to'g'risidagi ta'lilotiga, estetik tarbiyaning maqsadini, yo'llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi.

**Etika** ahloqni nazariy jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axloqiy tarbiyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axloqiy g'oyalar rolini tushunishni chuqurlashtiradi.

**Estetika** - insonlarni voqelikka, san'atga estetik munosabatlarni rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, nafosat tarbiyasining ilmiy asosi bo'lib xizmat kiladi. **Fiziologiya** pedagogikaning tabiiy-ilmiy bazasi bo'lib, u birinchi navbatda inson oliy nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv sistemasining xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch-harakat apparati, yurak-tomir va nafas olish sistemalari va shu kabilarning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni to'g'ri hal etishda: bola rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irsiyat va tarbiyaning ta'siri va shu singarilarni begilashda pedagogikaga yordam beradi. O'sib borayotgan organizm tuzilishining va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy tamoyillarini ochib beruvchi yosh fiziologiyasi ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni pedagogikaga o'quv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chikishda, bolalar faoliyatlarini uchun yaxshiroq sharoitlar yaratishda yordam beradi.

Maktabgacha pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib boradi. SHu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlarini haqidagi ma'lumotlar muhimdir. SHunga ko'ra pedagogikaning psixologik fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan.



Hozirgizamonpedagogikasiko'ptarmoqlifanbo'lib, avvaloutarbiyaijtimoiyhodisaekanligijihatidanpedagogikatarixibilanbog'lanadi.Pedagogikaningboshqafanlarbilanbog'lanishtizimidaetnografiya, xalqpedagogikasialohidao'rintutadi.

Umumiypedagogikaguruhi - uzlusizta'limjarayoniningo'zigaxosliginiasoslabberuvchi - oilapedagogikasi, maktabgachapedagogika, maktabpedagogikasi, kasbhunarta'limipedagogikasi, oliyta'limpedagogikasi, maxsuspedagogikadegantarmoqlargabo'lingan.

### **Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari**

*Maktabgacha pedagogika* maktabgacha ta'lism-tarbiyaning umuiniy qonuniyatları, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maq-sadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta'lism berishning mohiyati va muammo- larini o'rganadigan fan. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalaming jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, ularga ta'lism berish muammolarini o'rganadi.

Maktabgacha pedagogika tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarını o'rganadi va maktabgacha ta'lism muassasasi sharoitida ta'lism-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarını hisobga olgan holda ularning har tomonlama uvg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlami ishlab chiqadi. U maktabgacha ta'lism muassasalari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta'minlaydi hamda bolalarni maktab ta'limga tayyorlaydi<sup>1</sup>.

Maktabgacha pedagogika umumiypedagogikaning alohida soha-si bo'lib. uning umumiyp qonuniyatları, tamoyillari, uslubologik asosi, tashkiliy shakl, uslub va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi. bolaning

<sup>1</sup> YusupovaF. MakTabgacha tarbiya pedagogikasi.-T.: O'qituvchi, 1993.- 11-b.29

yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta’limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog‘liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihat - uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tibomi qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos - “o‘rgatuvchi”, didasko - “o‘rganuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyachi faoliyatlari, ta’Hmning maqsadi, mazmuni, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

**Maktabgacha pedagogika fanining *obyekti*** - yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

**Maktabgacha pedagogika fanining *predmeti*** - maktabgacha ta’lim- tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, uslub va vositalari.

**Maktabgacha pedagogikaning vazifalari** Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘sadi. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

0‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bola- larni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda **quyidagi vazifalarni** bajarishga e’tibor qaratiladi:

1. Har tomonlama uyg‘un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.
2. Bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish qonunivatlarini aniq- lash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida ta’lim tizimini takomillashtirish.
4. Maktabgacha ta’lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayot- gan tarbiyaehilar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg‘or pedagogik tajribalami umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Tarbiyachilami maktabgacha ta’lim pedagogikagasiga oid bilimlar hamda ta’lim- tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalish-lari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rga- nish.

## NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Uzluksiz ta’lim tizimida shaxs qanday vazifalarni bajaradi?
4. Davlat va jamiyatning kadrlar tayyorlash jarayonidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Uzluksiz ta’limning asosiy vazifalarini sanang.
6. Fan va ishlab chiqarishning uzluksiz ta’lim tizimidagi vazifalarini sharhlang.
7. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda maktabgacha ta’limga qanday ta’rif berilgan?
8. Maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

## MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

**1.** Davlatimiz tarixida ilk marotaba “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun nechanchi yil qabul qilingan?

- A) 1991-yil      B) 1999-yil  
C) 1992-yil      D) 1993-yil

**2.** “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” necha bosqichda araaliyotga tadbiq etilmoqda?

- A) 4 bosqichda      B) 3 bosqichda  
C) 2 bosqichda      D) bitta va umumiy tarzda

**3.** Shaxs. Davlat va iamivat. uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish qaysi qonuniy hujjatning tarkibiy qismlari hisoblanadi?

- A) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi  
B) Ta’lim to‘g‘risidagi qonun  
C) Kadrlar tayyorlash milliy modeli  
D) Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom

**4.** “Maktabgacha ta’lim” atamasi qachon va qaysi tashkilot tomonidan qabul qilingan?

- A) 1998-yil Xalq Ta’limi Vazirligi  
B) 1997-yil YuNESKO  
C) 1999-yil YuNISEF  
D) 1997-yil Xalq ta’limi bo‘limlari

## **2-MAVZU: MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI**

**Reja :**

- 1. Maktabgacha pedagogikaning metodologik asoslari**
- 2. Maktabgacha pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari**

*Tayanch tushunchalar:* metodologik asos, nazariy va amaliy asoslar, maktabgacha ta'lim-tarbiya, pedagogika.

**Maktabgachapedagogika**— pedagogikaning maktabgachayoshdagibolalargata'lim-tarbiyaberishhamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniylari, tamoyillari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o'rjanuvchisohasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasib.p.bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafosat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog'liq. 19-asrning 2-yarmida umumiyligi ped. dan ajralib chiqqan. Bu bir tomonidan yosh psixologiyasining rivojlanishi va ilmning alohida tarmog'i sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan ayollarning f-ka va zavodlarga jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining vujudga kelishi bilan izoxlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R. Ouen birinchi bo'lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtidan boshlab Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasib.p.fanning maxsus tarmog'i sifatida shakllandi va rivojlana boshladи. 20-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g'oyasi keng tarqaldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasib.p.ning asosiy vazifasi — maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasib. p.ning metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyusion tarzda taraqqiy etish qonuniylari, O'zRning 1997 yilgi "Ta'lim to'grisida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy lasturi", o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiismga oid tarixiy tajribasi, il-gor mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, ped., psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbi-yot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniylari tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasib.p.dan tadqiqotlar kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, hujjatlarni o'rjanish, bolalar faoliyati mahsulini taviil qilish metodlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar asosida tadqiqotlar mazkur soxa bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi va tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Har bir kuzatish jarayoni bat afsil yoziladi va ilmiy jihatdan taxlil qilinadi. Pedagogik tajribada birinchi navbatda bola, uning rivojlanishi uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Pedagogik tajriba ehtiyyotkorlik bilan ob'yektiv ravishla olib borilganlagina amalga oshiriladigan tadqiqot natijalarining ob'yektivligini ta'minlash imkoniyati tug'iladi.

Suhbat metodi u yoki bu bolani, yoki bir gurux.bolalarni yaxshiroq o'rganish imkonini yaratadi, ta'limgartarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bolalar bilan suhbat ularning qiziqishlarini, nutqidagi o'ziga xoslikni, atrof muhit hamda kishilarga munosabatini aniqlashga yordam beradi. Hujjatlar, ya'ni bog'cha va aloqida tarbiyachilarining reja va hisobotlarini urganish ham nazariy xulosalar chiqariisha muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mazkur hujjatlar maktabgacha ta'limgart muassasalaridagi tashkiliy ishlar xaqida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.Ushbu xulosalar uz navbatida tarbiya usullarini kashf etishga yordam beradi.Bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodi Maktabgacha yoshdag'i bolalar pedagogikasib.p.ning muhim ta-dqiqot metolilir.Bolalar faoliyati taxlili ularni shakllantirishda juda yamii natijalar beradi.

O'zbekistonda Maktabgacha yoshdag'i bolalar pedagogikasib.p.masalalari O'zbekiston ped. fanlari i.t. instituti, Toshkent ped. unti va boshqa ilmiy ta-dqiqot muassasalarida ishlab chiqiladi. Jumlanan, 1996-2000 yillarda O'zbekiston ped. fanlari i.t. instituti tomonidan amalga oshirilgan maktabgacha ta'limgart jarayenining mazmunini yangilashga yo'naltirilgan bir kator tadqiqotlar, xususan, "Maktabgacha yoshdag'i bolalarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan davlat talablari", "Uchinchi ming yillik bolasi" kabi tayanch das-turlarning yaratilishi diqqatga sazovor.Maktabgacha yoshdag'i bolalar pedagogikasib.p.da amalga oshirilgan tadqiqotlarning eng muhimi sensor tarbiya tizimi nazariy asoslarining yaratilganligidir.Chunki sensor tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish jarayonila uning sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishdan iborat.Barkamol inson tarbiyasi avlod-ajdodlarimizning azaliy orzusi bo'lib, bola olamga kelishidanoq unga odob-axloq, jismoniy va ma'naviy rivojlanish qonun- qoidalarini mutassil o'rgatganlar. Pedagogika fani tarkibida maktabgacha yoshdag'i bolalar tarbiyasi muammolari bilan shug'ulianuvchi Maktabgacha pedagogika fani yaratilgan.

Maktabgacha yoshdag'i boialarni ta'limgart tarbiyasidagi sifat o'zgarishlar va samaradorlik ko'proq milliy pedagogika tariximizning ildizlari va zamonaviy ta'iim- tarbiya sohasidagi yutuqlari bilan uyg'unlashtirish bilan yuksakdir.Maktabgacha pedagogika fanining rivojida Respublikamizda olib borilgan bir qator islohotlar, talablar, «Ta'limgart to'g'risida»gi Qonun, «Kadriar tayyorlash milliy dasturi», shuningdek, «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limgart to'g'risida Nizom»,«Maktabgacha yoshdag'i bolalarning ta'limgart tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari», O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'limgart Kontseptsiyasi» kabi davlat hujjatlari qabul qilindi.

***Maktabgacha pedagogikaning nazariy asoslari*** insonning aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan. Maktabgacha pedagogikaning milliy asoslari xalq merosi va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

«Maktabgacha pedagogika» fanining o'rganish orqali talabalar tug'Ugandan etti yoshggacha bo'lgan boialarni oilada va MTMda ta'limgart tarbiya ishlari mazmuni va metodlarini, uni tashkil etish shakllarini, boialarni maktabga tayyorlashning samarali metodlarini bilib oladilar.

Totalitar boshqaruv usuli asosida ish yuritilayotgan xalq ta'limgart tizimida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'Tim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi.

Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992-yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk "TaTim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'lim tizimi, uning asosiy yo'naliishlari, maqsad-vazifalari, ta'lim bosqichlari va ulaming mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tahlibi etilganda, bu borada muayyan kamchilik-larga yo'1 qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinnarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'limganligi ma'lum boidi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidayangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "TaTim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining "TaTim to'g'risida"gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va taTim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyligida kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyotga, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishdamoTjalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'Tgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha pedagogikaning nazraiyligini asoslari haqida gapiring.
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun haqida nimalarni bilasiz?
3. Kadrlar tayyorlash Milliy modelni mohiyatini yoritib bering
4. Ilk qadam MTM o'quv Dasturi bo'yicha nimalarni bilib oldingiz?

### **Test savollari:**

1. Qaysi davlat hujjatining uchinchi yakuniy bosqichi 2018 -2020- yillarga mo'ljallangan?
  - A) Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom
  - B) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
  - C) Ta'lim to'g'risidagi qonun
  - D) Maktabgacha ta'lim Konsepsiysi
2. Maktabgachata limmuassasasining Davlato quvdasturinima deb nomlanadi?  
A) Ilkqadam      B) Bolajon      C) MTM Nizom    D) Birinchi qadam

### **3-MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELI.**

#### **REJA:**

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari
3. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

*Tayanch so‘z va iboralar:*

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», milliy dasturning maqsadi va vazifasi, kadrlar tayyorlash milliy modeli, kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari, tarbiyachi - pedagoglar oldiga qo‘yilgan talablar.

Mustaqil Respublikamiz uchun yosh avlodni har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalash xayotiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy farovonligi fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma’naviy darajada yuksak rivojlanishiga bogliq.

Darhaqiqat, jamiyatimizning taraqqiy etishi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan huquqiy demokratik davlat qurishni etuk va malakali kadrlarsiz hal etib bo‘lmaydi. SHu bois Respublikada amalga oshirilayotgan isloxotlarning asosiy maqsadi va vazifasi inson va uning har tomonlama usib ulg‘ayishi, kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ularning ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o‘zgartirishga qaratiladi.

SHuningdek, xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish masalasiga hamkeng e’tibor qaratilmokda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanladi va kadrlar tayyorlash masalasiga lohida ahamiyat qaratildi. Bu borada ham qator chora - tadbirlar ko‘rildi va amalda qo‘llanildi.

Ma’lumki, 1992 yil iyul oyida Mustaqil O‘zbekistonning ilk «Talim to‘grisidagi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta’lim tizimi uning asosiy yunalishlari, maqsad vazifalari, ta’lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o‘z ifodasini topdi. 1997 yil yanvar oyiga kelib, «Ta’lim» to‘grisidagi qonun va unda ilgari surilgan goyalarning amaliyotga tatbiqi, mavjud ahvol, yutuq va kamchiliklar o‘rganildi va tahlil etildi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar aksariyat o‘rinlarda chuqur ilmiy asosga ega bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi. SHu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘rigida»gi qonunning

yangi tahriri hamda «Kadrlar tayyorlash» milliy dasturini ishlab chikuvchi maxsus komissiya tarkibi tayinlandi. 1997 yilning iyul oyida xar ikki me'yoriy hujjat mazmuni o'rganib chiqildi va umumxalq e'tiboriga havola etildi.

Umumxalq muhokamasidan o'tgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilindi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", «Ta'lif to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tarbiyani, ta'lif tizimida jahon miqyosidagi yutuqlar asosida yuksak umumiyy va kasb - hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo'ljalni to'ri ola bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Mazkur dastur kadrlar tayerlash milliy modelini ruyobga chiqarish, ta'lif va kasb-hunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy siyosiy, huquqiy, psixologik - pedagogik va boshqa sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Talim muassasalari xalq xo'jaligining turli sohalari uchun tayyorlayotgan kadrlarning kasbiy mahorati, aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyati hamda ma'naviy barqarorligiga qarab mustaqil O'zbekistonni kelajagini ko'rish mumkin degan g'oya «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ning yaratilishi uchun asos bo'ldi. SHu bois mazkur xujjat respublika ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini ochib beradi. Unda ta'lif sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi - inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligini ta'minlash muhim ekanligi aloxida qayd etib o'tildi.

## KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR

1. Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi;
2. O'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi etarli emasligi;
3. YUqori malakali pedagog kadrlarning etishmasligi;
4. Sifatlari o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi;
5. Ta'lif tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi;
6. Ta'lif-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lanmaganligi, ya'ni uzliksiz ta'lif-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilinmaganligi;
7. Ta'lif tizimi zamonaviy, taraqqiy topgandemokratik davlatlar talablariga javob bermasligi;
8. Mutaxassislar tayyorlash, ta'lif-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmaganligi va xokazolar.

## **Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari**

1. Respublikaning demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
2. Mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgartirishlarning amalga oshirilayotganligi;
3. Respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo‘nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi;
4. Mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;
5. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topayotganligi;
6. Milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi;
7. Boy milliy madaniy-tarixiy an’analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat xissini qaror topganligi;
8. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqeい va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi va xokazolar.

**Dasturning maqsadi** - ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

**Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:**

- birinchidan, ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini respublikada amalga oshirilayotgan uzgarishlar va yangilanish jarayonlariga moslash;
- ikkinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash hamda pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini oshirish.
- uchinchidan, ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish.
- To‘rtinchidan, ta’lim va kadrlar tayyorldsh sohasida o‘zaro hamkorlikii rivojlantirish.

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari bosqichma - bosqich amalga oshirilib boriladi.** Har bir bosqich muayyan vazifalarni hal etishni nazarda tutadi. 1-bosqich (1997 – 2001) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-uslubi», moliyaviy - moddiy shart - sharoitlar yaratish. 2 - bosqich (2001 -2005) - milliy dasturni to‘lik ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlani va real ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarni hisobgaolgan holda o‘ta anqliklar kiritish. 3-bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahondagi ilg'or mamlakatlar darajasiga ko'tarishga hissa qo'shuvchi, dadil, mustaqil fikrli, bilimli malakali mutaxassis, ayni paytda ijobiy insoniy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonini tashkil etadi.

Komil inson hamda etuk malakali mutaxassis milliy model mohiyatini ifoda etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiyatanginaiborat bo'lib qolmay balki, bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'pgina hayotiy bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Milliy model bu shaxs davlat va jamiyat, uzlusiz ta'lim, fan va ishlab chikarishning o'zaro uzviy birligi va hamkorligi, ularning bir -biriga aloqasini aks ettiradi. Ayniqsa, uzlusiz ta'lim tiziminiig faoliyat olib

borishi davlat ta'lim standartlari ososidaturlidarajalardagi ta'limdasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi. CHunki uzlusiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzlusiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr hisoblanadi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb - hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, komil inson va etuk malakali mutaxassis qiyofasida aks etishi lozim bo'lgai sifatlarga egabo'lib boradi. Demak uzlusiz talim milliy modelning asosiy tarkibiy kismlaridan biridir. Uzlusiz ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta'lim.
- Umumiyo'rta ta'lim.
- O'rta maxsus kasb - hunar ta'limi.
- Oliy ta'lim.
- Oliy o'huv yurtidan keyingi ta'lim.
- Kadrlar malakasini oshirish va qayta tay yorlash.
- Maktabdan tashqari ta'lim.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi - ta'lim sohasini tub- dan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlar- dan to'la xalos etish. rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir<sup>3</sup>.

"Kadrlar tayyorlash milliy dastur'da ilgari surilgan maqsadlarni to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

- "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini

isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

-ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqq7 an holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishiarning samarali shakllari hamda uslublarini isblab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsa- tishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ta'lim, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzlaksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatlari xalqaro hamkorlikni rivojlantirish<sup>4</sup>.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

*Birinchi bosqich* (1997-2001-yillar) - mayjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobjiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan - ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish;

*Ikkinchi bosqich* (2001-2005-yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sha-roitlami hisobga olgan holda unga anqliklar kiritish;

Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlan-gan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ulaming faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

*Uchinchi bosqich* (2005 va undan keyingi yillar) - to'plangan tajrib- ani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomil-lashtirish va yanada rivojlantirish.

Bu bosqichda, yana shuningdek,


-ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;

- o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlanishi;
- milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi ja- hon axborot tarmog‘iga ularadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiliy yechimi ta’minlanadi.

### **- Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari**

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat, ta’lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o z Ichiga oladi

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi



*Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyi-dagllardan iboratdir:*

1. **Shaxskadrlar** tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisidir;
2. **Davlat va jamiyatta’lim** va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishmi amalga oshimvchi hamda kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir;
3. **Uzluksiz ta’lim** malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;
4. **Fan** yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foy-dalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqarvchi boTib, Kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraq-qiyoti qonuniylatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta’lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar mfastruktururasini yaratish, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tad-

qiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlaming ijtimoiy mavqeysi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»;

**5. Ishlab chiqarish** - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek ulaming tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Globallashuv va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi.

### **Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari**

**SHaxs** - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

**Davlat va jamiyat** - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

**Uzluksiz ta'lim** - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini o'z ichiga oladi;

**Fan** - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

**Ishlab chiqarish** - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

### **Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari**

1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash;
2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish;
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar;
5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar;
6. Ta'lim tizimini boshqarish;
7. Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
8. Ta'lim tizimini moliyalash;
9. Moddiy-texnika ta'minoti;
10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;
11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish;
12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
13. Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish;
14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish;
15. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning o‘ziga xos bo‘lgan, takrorlanmas, buyuk urf - odat va an’analarimizga asoslangan eng asosiysi davr talablariga javob bera oladigan Kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

Kadrlar tayyorlash buyicha milliy model o‘z ilmiy salohiyati va ahamiyati chuqur falsafiy - ma’naviy asosga ega ekanligi bilan xalqaro mikyosda tan olindi va o‘z e’tiborini topdi.

### ❖ **KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI**

(*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 15-son, 150-modda*)

### **UMUMIY QOIDALAR**

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga riosa etilishini, jamiyatning ma’naviy yangilanishini, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishni ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyligi va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

## **1. MUAMMOLAR VA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN ISLOH QILISH OMILLARI**

### **1.1. RIVOJLANISHNING ERISHILGAN DARAJASI**

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora-tadbirlar ko‘rishni: «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunni joriy etishni (1992 yil); yangi o‘quv rejalar, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqishni; o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Maktabgacha ta’lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog‘chalari hamda «bolalar bog‘chasi-maktab» majmui tarmog‘i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san’ati, komgyuter savodxonligi asoslarini o‘rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan.

Yangi tipdagi maktablar va umumta’lim o‘quv yurtlari tarmog‘i rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda 238 litsey va 136 gimnaziya ishlab turibdi. «Sog‘lom avlod uchun», «Ma’naviyat va ma’rifat», «Iqtisodiy ta’lim», «Qishloq maktabi», «Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tiklash» va boshqa tarmoq dasturlari ro‘yobga chiqarilmoqda. Respublika umumta’lim maktablarida 435 mingdan ortiq o‘qituvchi ishlamoqda, ularning 73 foizi oliy ma’lumotlidir.

Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta’limini qayta tashkil etishga kirishildi. Hozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta’lim bilan qamrab olgan 442 o‘quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes-maktab ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlarida qariyb 20 ming o‘qituvchi va malakali mutaxassislar ishlamoqda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta’lim olayotgan 258 o‘rtalik kasb-hunar ta’limi o‘quv yurti ishlab turibdi. Ularda qariyb 16 ming o‘qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

O‘zbekiston oliy maktabi tizimi 58 oliy o‘quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o‘z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta’lim olmoqda; 16 universitetning o‘n ikkitasi O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o‘quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o‘qituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir. Oliy ta’limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan huquqiy yo‘nalishga o‘tkazish ishi olib borilmoqda, o‘quv yurtlarining tarmog‘i kengaymoqda, universitet ta’limi rivojlanmoqda. Bilimlarning yangi tarmoqlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy maktabni ko‘p bosqichli tizimga o‘tkazish amalga oshirilmoqda. Abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg‘or usullari joriy etilmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar sifatiga oshgan talablarga muvofiq aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishi kengaymoqda. Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi. Respublikada qariyb 4 ming aspirant bo‘lib, ulardan 69 foizi oliy ta’lim tizimida va 31 foizi ilmiy-tadqiqot institutlarida ta’lim

olmoqda. Jami ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning 8 foizini fan doktorlari va 37 foizini fan nomzodlari tashkil etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakultet, 4 markaz va 14 malaka oshirish kurslari ishlab turibdi.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.

Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgartirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi.

## 1.2. KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtaida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzlusiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotir.

Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmagan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya ahvoli qoniqarsizligicha qolmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalarning 25 foizigina maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olingan, xolos. Maktabgacha bolalar muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o'rtaida sezilarli tafovut mavjud.

Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o'quvchilarda mustaqil fikr lash rivojlanmay qolayapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo'q. 9-11 sinflarni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o'z o'rmini aniqlay olmaydi. Ularda o'zlariga ishonch shakllangan emas, o'rta maktab bitiruvchilarining 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirmoqda, xolos.

Majburiy to'qqiz yillik ta'limga asoslangan o'n bir yillik umumiy o'rta ta'lim ilmiy asoslanmagandir, u o'quvchilarda kasbga yo'naltirish va ta'limning amaliy yo'nalganligi yetarli darajada bo'lishi hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyati ko'nikmalari shakllanishini ta'minlamayapti. Har yili tayanch maktablarning 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasida hamda kasb-hunar ta'limini davom ettirish uchun talab etilmay qoldirilmoqda.

Ta’lim tizimidagi mavjud umumta’lim va kasb-hunar dasturlari o‘rtasida uzviylik va vorislikning yo‘qligi sababli tayanch va o‘rta maktab bitiruvchilarida kasbga yo‘naltirilganlik va mehnat faoliyati ko‘nikmalari shakllanmay qolayapti. Natijada yigit va qizlar o‘z qobiliyatlari, istaklari, ijodiy va mehnat moyilliklariga monand hayot yo‘lini belgilab olishda jiddiy qiyinchiliklar sezmoqdalar.

O‘quv jarayoni bilim darajasi o‘rtacha bo‘lgan o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagи o‘quv dasturlari bo‘yicha ishslash kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmayapti, o‘quv dasturlari mafkuraviy sarqitlardan to‘liq holi bo‘lganicha yo‘q, ularda ma’naviyat va axloq asoslarini o‘rgatuvchi, iqtisodiy huquqiy, estetik bilimlarni beruvchi fanlarga yetarlicha o‘rin berilmayapti.

Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagи ta’lim muassasalariga o‘tish ko‘proq og‘izda bo‘lib, amalda esa ularda ta’lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o‘quv-uslubiy bazasida, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tmagan o‘qituvchi kadrlar bilan amalga oshirilmoqda.

Bir bosqichli oliy ta’lim mehnat bozori ehtiyojlarini, ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlarni va ilg‘or xalqaro tajribani to‘liq hajmda hisobga olmayotir.o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlari yetarlicha mustaqillikka ega emas, ular kasbiy mehnat bozorining o‘zgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashib bormayapti.

Ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlar kadrlarni tayyorlash jarayoniga yetarli darajada qo‘shilganlari yo‘q. Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta’lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o‘tkazish vazifalari belgilab olinmagan. o‘quvchilarning bilim darajasini baholash tizimi ob’yektivlik va tezkorlikni ta’minlamaydi.

Kasb-hunar ta’limining obro’si hamda o‘qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bormoqda. Ta’lim xizmati ko‘rsatish va kadrlar tayyorlash sohasida marketing mavjud emas, ta’lim tizimini ko‘p variantli moliyalash sxemasi ishlab chiqilmagan. Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi qoniqarsiz ishlamoqda.

O‘qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko‘rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasidagi jami tarbiyachi va pedagoglarning atigi 20 foizi oliy ma’lumotlidir. Maktablarning o‘qituvchilar bilan ta’minlanganligi o‘rtacha 93 foizni tashkil etgani holda, bu ko‘rsatkich ayrim viloyatlarda 77-80 foizdan, muayyan fanlar bo‘yicha esa 50 foizdan oshmaydi.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o‘rtacha yoshi «ulg‘ayib» bormoqda. Respublika oliy o‘quv yurtlarida 40 yoshga to‘lman fan doktorlari jami fan doktorlarining 0,9 foizini, 50 va undan katta yoshdagilari esa 79 foizini tashkil etadi. Fan doktorlari ilmiy darajasiga tasdiqlanganlar o‘rtacha 50, fan nomzodlari esa 36 yoshdadir.

### **1.3. ISLOH QILISH OMILLARI**

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo‘nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;

davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topganligi;

milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an’analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqyei va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

## **2. MILLIY DASTURNING MAQSADI, VAZIFALARI VA UNI RO‘YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI**

### **2.1. DASTURNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Mazkur dasturning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

«Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minalash;

ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minalash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;

kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko’rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag’lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

## **2.2. DASTURNI RO‘YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI**

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997 — 2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloq qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq ta’lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

ta’lim oluvchilarining yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo‘yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;

o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

ta’lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag’lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta’lim muassasalarini bilan bir qatorda nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta’lim xizmati ko’rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

ta’lim muassasalarini faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo‘lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish,

shuningdek respublika ta’lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o‘quvchi o‘rinnari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta’minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish yo‘nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinci bosqich (2001 — 2005 yillar) Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek o‘quvchilarining qobiliyatları va imkoniyatlari qarab, tabaqalashtirilgan ta’limga o‘tish to‘liq amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ta’milanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’milanadi. Uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.Ta’lim xizmat ko‘rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to‘liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’milanadi.

Milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o‘zini o‘zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.Ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan komgyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olinadi.

### **3. KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY MODELI**

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs — kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat — ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo‘lishini va hayot o‘zgarishlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo‘lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

### **3.1. SHAXS**

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari orqali sifatli ta’lim olish, shuningdek ta’lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat ta’lim standartlari orqali sifatli ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko‘rish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi va tajribasini o‘rgatishda ishtirok etadi.

### **3.2. DAVLAT VA JAMIYAT**

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga, chunonchi:

Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlari ro‘yobga chiqarilishiga;

Majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishga;

Davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliv ta’lim va oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’lim olish huquqiga;

Davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;

Ta’lim oluvchilarining o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga;

Sog‘liq va rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar ta’lim olishiga kafolat beradilar.

### **3.3. UZLUKSIZ TA’LIM**

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

3.3.1. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari

Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish printsiplari quyidagilardan iborat:

ta’limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta’limning demokratlashuvi ta’lim va tarbiya uslublarini tanlashda o‘quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta’limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o‘tilishi;

ta’limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’milanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;

ta’limning ijtimoiylashuvi ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta’limning milliy yo‘naltirilganligi ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

3.3.2. Uzluksiz ta’limni isloh qilish

Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish; ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini tubdan o‘zgartirish;

majburiy umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash;

maxsus, kasb-hunar ta’limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;

ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

milliy mustaqillik printsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarining ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;

ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;

uzluksiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta’lim va ilm-fan bilan bog‘liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

tub yerli millatga mansub bo‘lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarining huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

### 3.3.3. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

maktabgacha ta’lim;

umumiy o‘rta ta’lim;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;

oliy ta’lim;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to‘qqiz yillik umumiy o‘rtta hamda uch yillik o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishini ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturlari: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar), umumiy o‘rtta ta’lim (I-IX sinflar), o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oladi.

Kasb-xunar ta’limi dasturlarini o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

## **MAKTABGACHA TA’LIM**

Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalgा oshiriladi. Maktabgacha ta’lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;

zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha massalalari bo‘yicha malakali konsultatsiya xizmati ko‘rsatish imkoniyatini yaratish;

maktabgacha tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasalari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

## **UMUMIY O‘RTA TA’LIM**

To‘qqiz yillik (I-IX sinflar) o‘qishdan iborat umumiy o‘rtta ta’lim majburiydir. Ta’limning bu turi boshlang‘ich ta’limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o‘rtta ta’lim tugallanganidan

keyin ta’lim fanlari va ular bo‘yicha olingan baholar ko‘rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o‘rtta ta’limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o‘rtta ta’lim olishni ta’minlovchi davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta’lim dasturlari bilan mantiqiy bog‘liqlik hisobga olinishi lozim;

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

hududlarning jug‘rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta’lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta’limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish;

ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash;

o‘quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

## **O‘RTA-MAXSUS, KASB-XUNAR TA’LIMI**

Umumiy o‘rtta ta’lim negizida o‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzlusiz ta’lim tizimidagi mustaqil turdir. O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rtta maxsus ta’lim beradi, o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zлари tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zларida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘nikmalarни o‘qishni muayyan oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro‘yogha chiqarishlari mumkin.

Kasb-xunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi; o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o‘quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdag‘i ta’lim muassasalari hisoblanadi.Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta’lim olish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga

davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyatini bilan shug‘ullanish huquqini beradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko‘rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta’lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarini uchun ta’lim va kasb-hunar dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish;

akademik litseylarning o‘quvchilari mehnat faoliyatini ko‘nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislariga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro‘yxatini ishlab chiqish;

hududlarning jug‘rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislariga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi ta’lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta’minalash, ularga o‘quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

## **OLIY TA’LIM**

Oliy ta’lim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta’lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so‘ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo‘yicha “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyatini bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyatini bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta’lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta’lim muassasalari uchun professor-o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o‘quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta’lim muassasalarida tarkibiy o‘zgartishlar o‘tkazish;

oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish;

o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distantsion ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish;

xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minalash.

## **OLIY O‘QUV YURTIDAN KEYINGI TA’LIM**

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta’lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni oliy o‘quv yurtlarida va ilmiytadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad’yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestatsyasi natijalariga ko‘ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirdari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish;

kasb ta’limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

fan, texnologiya va ta’lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

## **KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI QAYTA TAYYORLASH**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalaridagi o‘qish natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

yuqori malakali o‘qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta’minlash;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta’minlovchi normativ bazasini yaratish;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta’minlovchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;

professional treningning ilg‘or texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o‘zlashtirib olish.

## **MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM**

Bolalar va o‘smlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

ta’lim berish va kamol toptirishga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko‘paytirish;

milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg‘or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

### **3.4. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA FAN**

Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o‘z ichiga oladi, bu sohada:

tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o‘rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi;

oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta’minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo‘ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirim borishi uchun quyidagilar zarur:

ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihamalarini shakllantirish va amalga oshirish yo‘li bilan ilm-fanning ta’lim amaliyoti bilan aloqasini ta’minlash chora-tadbilarini ishlab chiqish;

ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘quvtarbiya jarayoniga o‘z vaqtida joriy etish mexanizmini ro‘yobga chiqarish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta’minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro‘yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro‘e’tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini faollashtirish, ta’lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o‘zaro almashinuv jarayonini kuchaytirish;

fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta’sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko‘paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko‘rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

### **3.5. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA ISHLAB CHIQARISH**

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta’limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi, chunonchi u:

turli saviya va malakadagi mutaxassislarga bo‘lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

o‘z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, kadr resurslari hamda kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta’lim tizimiga ko‘maklashadi;

muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o‘quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

ta’lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqyeini kuchaytirish quyidagi yo‘llar bilan ta’minlanadi:

ta’limni karxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo‘sib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ta’lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma’naviy va jismoniy tarbiyalash);

ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

pedagog kadrlarning ilg‘or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta’lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

ishlab chiqarish amaliyotini o‘tish uchun ta’lim oluvchilarni ish joylari bilan ta’minlash;

o‘zaro integratsiyalangan ta’lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash.

#### **4. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

#### **4.1. TA'LIMNING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASH**

Ta'limning o'z ichiga maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta'limining bakalavrlar va magistrler tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha raqobatbardosh ta'lim muassasalarini vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi.

#### **4.2. PEDAGOG VA ILMIY-PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH**

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta'limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko'zlovchi tizimi vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlariga mos yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha maxsus fakultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun o'qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

#### **4.3. TA'LIM JARAYONINI MAZMUNAN ISLOH QILISH**

Kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish printsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Pedagog kadrlarning obro'-e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv, shu jumladan differentsiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

#### **4.4. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA MA'RIFIY ISHLAR**

Yoshavlodnima'naviy-axloqiytarbiyalashdaxalqningboymilliymadaniy-tarixiyan'analariga, urf-odatlarihamdaumumbashariyqadriyatlargaasoslangansamaralitashkiliy, pedagogikshaklavavositalariiishlabchiqilib, amaliyotgajoriyetiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi.

Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

O'zbekiston mustaqilligi printsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o'zaro puxta hamkorlik qiladilar.

(4.4-bandining ikkinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 9 apreldagi O'RQ-87-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2007 y., 15-son, 150-modda)

#### **4.5. IQTIDORLI BOLALAR VA ISTE'DODLI YOSHLAR**

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

#### **4.6. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH**

Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruvi organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning normativ-huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo'jalik faoliyati olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta'lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

## **4.7. KASB-HUNAR TA'LIMI SIFATINI NAZORAT QILISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH**

Ta'lim boshqaruvi organlariga bog'liq bo'lмаган, kasb-hunar ta'limi sifatini attestatsiyadan o'tkazuvchi davlat xizmati tashkil etiladi. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbol talablariga monand davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, o'quv yurtlari faoliyatini, professor-pedagog kadrlar sifatini hamda ta'lim oluvchilarning bilimini reyting asosida baholash tizimi tadbiq etiladi. Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilishning davlat va jamoat shakllari rivojlantiriladi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyalash tizimi takomillashtiriladi.

## **4.8. TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASH**

Ta'limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtiriladi, uning ko'p variantli (byudjetdan ajratiladigan va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi pul bilan ta'minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalgan etish rag'batlantiriladi.

Respublika fuqarolari uchun keyinchalik ularni to'lashning moslashuvchan tizimiga asoslangan ta'lim kreditlari berish mexanizmi shakllantiriladi. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda donorlar va homiy larning mavqyei kuchayib boradi.

Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qo'yilgan vazifalarga muvofiq boshqa tarzdagi faoliyat hisobidan ta'lim muassasalarining daromadlari ko'payishi ta'minlanadi.

## **4.9. MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTI**

Har bir mintaqaning demografik va jug'rofiy xususiyatlardan kelib chiqib, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tarmog'i barpo etiladi. Ta'lim oluvchilarni oiladan ajralmagan holda o'qishga imkon qadar ko'proq qamrab olinadi.

Mayjud ta'lim muassasalarini kapital ta'mirlash va yangi ta'lim muassasalari qurish, ularni normativ talablarga muvofiq, zamonaviy texnika va texnologiyalarning darajasini hisobga olgan holda jihozlanishini ta'minlash choralarini ko'rildi.

O'quv-tarbiya muassasalarini zarur uskunalar, inventarlar, ashyolar, ta'limning texnikaviy, dasturiy va didaktik vositalari bilan jihozlash yuzasidan ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish qo'llab-quvvatlanadi. Barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini komgyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi.

## **4.10. TA'LIM TIZIMINING YAXLIT AXBOROT MAKONINI VUJUDGA KELTIRISH**

Zamonaviy axborot texnologiyalari, komgyuterlashtirish va komgyuterlar tarmoqlari negizida ta'lism jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lism jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqyei oshib boradi, televide niye va radioning ta'lism dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

## **4.11. TA'LIM XIZMATI KO'RSATISH BOZORINI RIVOJLANTIRISH**

Ta'lism va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan ta'lism xizmati ko'rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi. Davlat va nodavlat ta'lism muassasalari rivojlantiriladi, ta'lism va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta'lism xizmati ko'rsatish bozori davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Asosiy ta'lism dasturlarida nazarda tutilmagan konsultativ va qo'shimcha ta'lism xizmatlaridan iborat pullik ta'lism xizmati ko'rsatish tizimi rivojlantiriladi.

## **4.12. TA'LIM SOHASIDA IJTIMOY KAFOLATLARNI TA'MINLASH HAMDA BU SOHANI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH**

Pedagogik faoliyatning obro'-e'tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro'yobga chiqariladi. Ta'lism oluvchilarning va pedagoglarning o'qishi, sog'ligi va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta'lism muassasalari va sog'lijni saqlash organlari bolalar hamda o'quvchi yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarini ko'radilar. o'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirishga qaratilgan yo'naliшини ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar ta'minlanadi. Ta'lism oluvchilarning tibbiy-gigiyena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi faolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

## **4.13. FAN BILAN TA'LIM JARAYONI ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH**

Ta'lism va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi, ta'lism sifati davlat ta'lism standartlariga muvofiq kelishini tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lism sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta'lism jarayonidagi ishtiroki rag'batlantiriladi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi ta'minlanadi. Yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

#### **4.14. ISHLAB CHIQARISH VA TA'LIM TIZIMI INTEGRATSIYALASHUVINI RIVOJLANTIRISH**

O‘quv-ishlab chiqarish majmularini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash rag‘batlanriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniadi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo‘llab-quvvatlanadi. Ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

#### **4.15. TA'LIM VA KADRLAR TAYYORLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK**

Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yobga chiqariladi, xalqaro ta’lim tizimlari rivojlantiriladi, ilmiy-pedagog kadrlar, talabalar va o‘quvchilar almashish kengayadi. Ta’lim to‘g‘risidagi milliy hujjatlar xalqaro miqyosda e’tirof etilishi uchun asos yaratiladi. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning, O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalarining kadrlar tayyorlash sohasiga chet el investitsiyalarini bevosita va bilvosita keng jalb qilish borasidagi faoliyat kuchaytiriladi.

### **5. MILLIY DASTURNI RO‘YOBGA CHIQARISHGA DOIR TASHKILIY CHORA-TADBIRLAR**

Milliy dasturni amalga oshirish maqsadida:

Milliy dasturning yo‘nalish va bosqichlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta’mnoti ifodalangan yechim va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi;

Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalari belgilanadi;

Milliy dasturning aniq yo‘nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlari jalb etiladi;

Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvi tashkil etiladi;

Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritiladi;

ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modeli ro‘yobga chiqarilishini ta’minalash masalalari yuzasidan seminarlar va konferentsiyalar o‘tkazish orqali Milliy dasturning printsipial yondashuvlari hamda asosiy qoidalari keng ko‘lamda tushuntirish ishlari olib boriladi;

Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqalarining faol ishtiroki ta’milanadi;

ommaviy axborot vositalarida Milliy dasturning bajarilishi muntazam yoritib boriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan Respublika komissiyasi tashkil etiladi, bu Komissiyaning zimmasiga dasturni bajarishga doir

barcha ishlar va tadbirlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, shu jumladan quyidagi vazifalar yuklanadi:

uzluksiz ta’limning tegishli turlari uchun davlat ta’lim standartlariga qo‘yiladigan umumiyl talablarini ishlab chiqish;

umumiyl o‘rtalim uchun davlat ta’lim standartlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlardan iborat ta’lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

o‘rtalim umumiyl ta’limga ega bo‘lgan o‘quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to‘la qamrab olish tadbirlarini, bu tizimni hududlarning demografik, jug‘rofik xususiyatlari va kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirish, uning moddiy-texnika asosini yaratish;

akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ishlaydigan o‘qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta’lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta’minlash;

oliy ta’lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloq qilish, bu borada tegishli davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;

maktabgacha ta’lim va tarbiya muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bolalar tarbiyasida va ularni maktabga tayyorlashda oila, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining mas’uliyatini oshirish;

ta’lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta’minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish, ta’lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish;

professor va pedagog kadrlarni rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi ta’lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus Respublika jamg‘armasi tashkil etish va uning faoliyatini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarni faol o‘rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o‘rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, o‘zbekcha-chet tillar lug‘atlarini, davlat tilidagi maxsus adabiyotlarni nashr etish;

uzluksiz ta’lim sohasi o‘qituvchilari va pedagog kadrlarini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish tizimini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiyalash, kadrlar tayyorlashning malaka talablarini aniqlash hamda sifatini baholash ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha ta’lim tizimi boshqaruviga bog‘liq bo‘limgan yagona davlat xizmatini tashkil etish;

ta’limni axborot bilan ta’minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog‘lash, ommaviy axborot vositalarining ta’lim sohasidagi vazifalarini belgilash;

kasb-hunar ta’limi sohasida kadrlarga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganishni tashkil etish, ta’lim xizmati ko‘rsatish va kasbiy mehnatning raqobatga asoslangan bozorini hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni shakllantirish.

## **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Uzluksiz ta’lim tizimida shaxs qanday vazifalarni bajaradi?
4. Davlat va jamiyatning kadrlar tayyorlash jarayonidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Uzluksiz ta’limning asosiy vazifalarini sanang.
6. Fan va ishlab chiqarishning uzluksiz ta’lim tizimidagi vazifalarini sharhlang.
7. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda maktabgacha ta’limga qanday ta’rif berilgan?
8. Maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

## **4-MAVZU: MAK TABGACHA TA’LIMGA KIRISH**

### **REJA:**

1. Maktabgacha ta’lim tushunchasi. Maktabgacha ta’limga munosabat
2. Mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari
3. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish masalalari

*Tayanch tushunchalar:* maktabgacha ta’lim, bola, shaxs, rivojlanish, xorij tajribalari, yondashuv, Konsepsiya.

Bugungi kunda jahoning ilg‘or mamlakatlarida ta’lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning pirovardida inson paydo bo‘lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o‘qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o‘zaro bog‘langan va harakatdagi tizimini yaratish e’tiborga molikdir. Bu tizimni o‘rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi.

Respublikamizmaktabgachata'limtizimisohasidahamilg'orxalqarotajribalarniommashtirish,  
tizimdafaoliyatko'rsatadiganpedagogxodimlarnikasbiykompetensiyalarinirivojlantirishningsamaralimexanizmlarinitaklifqilish,  
maktabgachata'limgaqo'yilgandavlattalablarinibajarishyo'nalişlarinibelgilabberish, maktabgachata'limdasturlarinitakomillashtirishgaoitakliflarniilgarisurish, sohagaoiddavlatsiyosatiniamalgaoshirishgayo'naltirilgantavsiyalarishlabchiqishka biustuvorvazifalarnibelgilabolishgae'tiborqaratilmoque.  
Maktabgachata'limuyg'unrivojlanganshaxsnitarbiyalash, bolanibutunkelajaginibelgilabberadiganbilimvaqadriyatlarniyoshavlodqalbigasing dirishdajudamuhimahamiyatgaegabo'lganmuaassasadir.  
SHuboismamlakatimizdamaktabgachata'limnirivojlantirishvasamaralifaoliyatko'rs atishigaqaratilgannormativ-huquqiyhujjatlarqabulqilinib, komplekschoratadbirlaramalgaoshirilmoqda.  
Ammohalisouadaechiminikutayotganqatorkamchiliklarbor. Jumladan, joylardagimaktabgachata'limmuassasalaridamoddiy-texnikbazaningnochorligi, malakalikadrlaretishmasligi, sifatlioziq-ovqatta'minotiningpastligikabilarbolalarnimaktabgachata'limbilanto'liqqamrabolis hnita'minlashgaimkonbermayapti.  
Aytishkerakki,  
buo'tamuhimvadolzarbzavazifalarnitezvasifatlibajarishPrezidentimizSHavkatMirziyoevningdoimiye'tiboridabo'lmoqda. 2017 yil 9 sentyabrъ kuniqabulqilingan "Maktabgachata'limtiziminitubdantakomillashtirishchoratadbirlarito'g'risida"giO'zbekistonRespublikasiPrezidentiningqaroriushbufikrimizingamaliyifodasidir.  
Qarordamaktabgachata'limniboshqarishningzamonavimexanizmlarinijoriyetish, tarbiyavao'quvjarayoninitakomillashtirish, MTMlarinfratuzilmasivamoddiy-texnikta'minotiniyaxshilashbo'yichachoratadbirlarniamalgaoshirishnazardatutilgan.  
Ungako'ra,  
maktabgachata'limtiziminitanqidiyo'rganishvafaoliyatiniyanadatifikomillashtirishy uzasidantakliflarishlabchiqishbo'yichakomissiyatashkiletildiUshbukomissiyamakt abgachata'limsohasidagiqonunchilikniundagibo'shliqlarni, korrupsiyavaboshqahuquqbazarliklarniyuzagakeltiruvchinormalnianiqlashnuqtai nazaridantahllilqilish, sohadadavlatsiyosatiniamalgaoshirishga, shujumladan, zarurinfratuzilmaniyaratishga, xodimlarningmehnatinimoddiyrag'batlantirishga, pedagogkadrlarnisifatlityorlashvamalakasinioshirishga, xususiysektornirivojlantirishgato'sqinlikqiluvchitizimlimuammolarnianiqlashham dakomplekso'rganishkabibirqatordolzarbzavazifalarnibajarishinazardatutilgan.

Ayniqsa,  
ilg‘orxorijiyatjribanihisobgaolganholdasifatlimaktabgachata’limnitashkiletishgada  
vlattalablariniqaytako‘ribchiqish, bolalarmiqabulqilishningamaldagitaribini,  
vakolatlidavlatorganlarifaoliyatigazamonaviyaxborot-  
kommunikatsiyatexnologiyalariningjoriyetilishiholatinitanqidiyo‘rganishhambevo  
sitakomissiyazimmasigayuklandi.

2018 yil 1 yanvardanboshlab, Toshkent, Nukusshaharlarida,  
viloyatlarmarkazlardaeksperimenttariqasidadavlat-  
xususiysheriklikshartlaridayangimaktabgachata’limmuassasalaritashkiletlishiham  
sohadao‘zigaxosyangilik, deyishmumkin.  
Buninguchuninvestorlargaeruchastkalari,  
bo‘shturbanbinolarfoydalanishuchunajaratiladi.

Ulargasoliqimtiyozlarivaimtiyozlikreditlarberiladi.

SHuningdek,  
O‘zbekistonRespublikasidamaktabgachata’limtiziminiyanadatokomillashtirishbo‘y  
icha “Yo‘lxaritasi” tasdiqlanib, shuasosdaaniqchora-  
tadbirlarbelgilandi.Maktabgachata’limmuassasalariningmoddiy-  
texnikbazasnimustahkamlash, kadrlarsalohiyatinioshirish,  
xorijtajribasidanfoydalanib,  
milliytizimniyanadarivojlantirishgadoiraramaliyishlarnibajarishko‘zdatutilgan.

Birso‘zbilanaytganda, Prezidentimizning  
“Maktabgachata’limtiziminitubdantakomillashtirishchora-  
tadbirlarito ‘g‘risida”giqarorimaktabgachata’limtiziminisifatjihatdanyangibosqichg  
ako‘tarish,  
yoshavlodningbarkamolvaetukshaxsbo‘libulg‘ayishidamuhimahamiyatkasbetadi.

E’tirof etish joizki, ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish  
bosqichida uning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal  
o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim  
Konsepsiyasida<sup>1</sup> ular quyidagicha izohlanadi: maktabgacha ta’lim muassasalari  
faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta’lim  
muassasalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoqda; nodavlat  
maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i kengaymoqda; ta’limning ilg‘or  
texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi  
takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim  
muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. Moliya institutlari ishtirokida  
investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, maktabgacha ta’lim muassasalarida  
innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Biroq ushbu  
jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatish uchun  
uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini  
aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga

oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar ham maktabgacha ta’lim muassasalardagi ta’lim jarayoni va uning samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darajasi hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Tahlil mamlakatimizda uzlusiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini tizimida sog‘lom, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilganligini ko‘rsatdi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, Davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Oxirgi 3 yilda ajratilgan mablag‘larning hajmi 2 baravar ortdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darajasi hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari ushbu sohada bir qator foydalanilmagan imkoniyatlar va ishga solinmagan zaxiralalar mayjudligini ko‘rsatdi.

### ***“Maktabgacha ta’lim Konsepsiysi”ning konseptual asosi, maktabgacha ta’limning asosiy mazmuni, maqsad va vazifalari.***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta’minlashda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasи ishlab chiqildi.

Ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal o‘zgarishlar yuz bermoqda va ular

quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda: maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta’lim muassasalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoqda; nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i kengaymoqda; ta’limning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Ta’limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya jarayonidir.

Maktabgacha ta’lim o‘zining shakl va usullaridan qat’iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog‘ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirish;- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta’lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O‘zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta’lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta’minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiyy rivojlanish ta’minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko‘nikma va faoliyatning turli ko‘rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

**Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari** - ta’limga tarbiyachi va bolaning o‘zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o‘qitish; qiyin maqsad g‘oyasi (bolaning oldiga murakkab maqsad qo‘yiladi va uni engib o‘tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch signallar); o‘z-o‘zini tahlil qilish (bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va jamoa bo‘lib muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy ravishda bolalarning o‘quv dasturini yaxshiroq o‘zlashtirishlarini maqsad sifatida belgilab o‘qitish vaqtini tanlashi); guruhning intellektual foni (o‘qitishning mazkur bosqichida ahamiyatli hayotiy maqsadlarni qo‘yish va tarbiyalanuvchilar

tomonidan dasturga nisbatan kengroq bilimlar egallah); shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi.

Ta’limning natijalari bolada hozirjavoblik, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo‘ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his qilish, ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi) ta’minlanadi; zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi; dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi; jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi.

*Maktabgacha ta’lim jarayonida bolaga ta’lim-tarbiya berishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli ustuvor sanaladi.* SHaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida “o‘zgartirish emas”, balki “uni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish”dir.

**SHaxsiy yondashuv** ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to‘liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko‘zlaydi.

**SHaxsiy majburiyatlar** - bu shaxs tomonidan “shaxs bo‘lish” ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma’lum fazilatlarning namoyon etilishidir.

Pedagog tomonidan qadriyatlar orasida yo‘nalishini aniqlash uning kasbiy faoliyatini belgilaydi. SHaxsga yondashuv pedagog va bolaga o‘zini shaxs sifatida his qilishiga, ularning imkoniyatlarini aniqlash va namoyon etishga, o‘zini anglab etishga, jamiyat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘ziga ishonish va o‘zini kashf qilish usullariga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshda bola buyumlarning alohida yuzaki xususiyatlarini qabul qilishning yuqori cho‘qqilarini egallaydi, ko‘rgazmali shakldagi amaliy va aqliy vazifalarning echimini topadi. Lekin bola hali buyumlarning ko‘rinishiga ahamiyatsiz bo‘ladi. Bu tabiiy hol chunki buyumlar uning uchun mavjuddir va ular bolani faqat amaliy va aqliy faoliyat ob’ekti sifatida qiziqtiradi. Maktabgacha yoshdagi bola buyumlarning mohiyatini emas, balki ularning tashqi ko‘rinishi va ishlatilishiga qarab ish tutadi. Buyumlarning bizlarga qanday ko‘rinishi bilan mohiyati o‘rtasida katta farq bor. Buyumlarning mohiyati yuzaki emas, u shaxsiy tajriba orqasida yuzaga kelmaydi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinmaydi. U ijtimoiy tashkillashtirilgan o‘quv – dunyoni ilmiy anglash orqali kashf etiladi.

**Tubdan o‘zgartirilgan o‘qitish** – bola va pedagogning hamkorlikdagi tubdan o‘zgartirilgan (ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi) pedagog va bola shaxsini mustaqil tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyati, qaysiki shaxsiy mazmunni hayotiy

bo'shliqda qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan, pedagog va bolaning universallashtirilgan tizimi. Tubdan o'qitish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

**Ijtimoiy pedagogik yondashuv.** Uning mazmuni shundan iboratki, bola tomonidan insoniyat tajribasining o'zlashtirilishini ta'minlovchi rivojlanishni amalga oshirish. Bunday yondashuv ta'lim berish jarayonini yakuniy natijaga-bola shaxsining ijtimoiylashuviga erishishga yo'naltirilgan. Uning mohiyati bola tomonidan jamiyatning ahloqiy, ma'naviy o'zgarishlarni tubdan isloh qilishdir. Bunday yondashuvda ta'lim tarbiya beruvchi vazifani bajaradi.

**Gnoseologik (bilish faoliyati) yondashuv** o'qitish jarayoni mohiyatini anglash jarayonidan olib chiqadi va yuzaga kelgan anglash faoliyatini modifikatsiyalaydi (variatsiyalaydi). O'qitish insonning individual rivojlanishini tezlashtiradi, qaysiki ijtimoiy qonunchilikka bo'ysunadi. SHu bilan birga u insonning o'rnatilgan tartibda individual rivojlanishi bilan birga, inson ongining umumiy tarixiy rivojlanishiga ham bog'liqdir.

O'qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash tizimiga yaqinlashtiradi, bolaning shaxsiy tajribalari va o'qish va o'qitish davrida yuzaga kelgan tushunchalar orasidagi tafovutlarni chaqiradi.

**Gnoseologik o'qitishning mohiyati** ta'lim vazifalarini tatbiq etishda o'qitilayotgan ob'ektning individuallashtirish jarayonini amalga oshirishdan iborat.

**Psixologik yondashuv.** Bu yondashuv uchun insonning rivojlanishi va bilimlarni o'zlashtirishini psixologik nazariy bilimlarni yuzaga olib chiqishdan iborat.

Aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini inobatga olgan holda (P.YA.Galperin, N.F.Talibzin), o'qitish birinchi materiallashgan bosqichdan ikkinchisi, ya'ni tayanch tashqi nutq faoliyatida saqlangan bosqichga o'tadi. Undan so'ng aqliy faoliyat to'liq ichki faoliyatda amalga oshiriladigan uchinchi, yuqori bosqichga o'tadi. Bunday yondashuvda o'qitishning mohiyati aqliy faoliyat shakllanishining bosqichlariga mos ravishda solishtiriladi. Bunday yondashuvda o'qitish o'qitiluvchining shaxsiga yo'naltiriladi va rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshiradi.

**Akmeologik** (grekcha so'zdan olingen bo'lib, yuqori nuqta, yaxshi payt va o'qish degan ma'noni bildiradi) **yondashuv** o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan xususiyatlarini ochib beradi. Uning asl mohiyati shundan iboratki, o'qitish shaxsning hayotiy dunyosiga, pedagog va bolaning mavjud hayoti mazmuniga bir tekisda kirib boradi. O'qitish nafaqat o'qitiluvchi va va pedagogning fikr va munosabatlarni uyg'unlashtirib, mazmun maydonini o'zgartiradi, balki, o'zaro munosabatlarning yaxlit sub'ektining paydo bo'lishi va

rivojlanishiga olib keladi. Bunda o‘qitishning o‘zaro tarbiya, o‘zaro ta’lim, o‘zaro hamkorlik, o‘zaro ijodiylikka aylanishiga omil bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida uslubiy tamoyillarni tadbiq etishda quyidagi ta’lim maqsadlari mavjud: tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi, amaliy.

***Ta’limning tarbiyaviy maqsadi*** – bola extiyojlarini tarbiyalash, pedagogik nuqtai-nazarni tadbiqu etish (kattalar tomonidan boshqarilayotgan jamoaviy faoliyatda bola tomonidan o‘zining shaxsiy kechinmalari orqali “ahloqiy bosqichlar”ni bosib o‘tish yo‘li).

Tarbiyaviy maqsadning mazmuni shundaki, bolada ahloqiy qadriyatlar tizimi, dunyoga hissiy-baholovchi munosabat shakllanadi.

***Ta’limiy maqsad shundan iboratki***, bola ta’lim jarayonida o‘zining aqliy ehtiyojlarini qondirib, uni o‘rab turgan haqiqatni anglab boradi.

Ta’limning tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi, amaliy maqsadlari o‘qitishning munosib vosita, usul va uslublarini tanlash sharti bilan tadbiqu etiluvchi va uslubiy tamoyillarni belgilovchi asosiy faktor bo‘lib xizmat qiladi. Bolaning rivojlanishi va uning maktabga tayyorgarlik ko‘rsatkichlari quyidagilar:

- 1.Jismoniy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatni rivojlanishining fiziologik darajasi);

- 2.Psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining xissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);

- 3.Ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi). Pedagogning maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini belgilashda 3ta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo‘yicha va refleksiv.

***SHaxs sifatida tayyorgarlik*** – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya’ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma’lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash, pedagogik vazifalarni malakali xal etish);

***pedagogik maqsadni belgilash*** (tashkilotchilik qobiliyatları -o‘qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg‘ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini kerakli inventar jixozlari bilan ta’minlash; o‘z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish (ertaliklar, adabiy kechalar va boshqalar);

***pedagogik yo‘naltirilganlik*** (komunikativ qobiliyatlar: ma’lum bir ta’lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma’lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma’lumotni berish usul va uslublarini to‘g‘rilash, birovni ishontira olish qobiliyati, “pedagog -pedagog”, “pedagog-ota-on”, “pedagog-menedjer”, “pedagog-bola” darajalarida kasbiy muloqotni savodli tuzish; bolalar jamoasida ijobiy psixologik mikroklimatni yaratish va boshqalar).

*Kasbiy tayyorgarlik:* pedagogik takt (intellektual mehnat bo‘yicha loyihamiy qobiliyatlar: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, ajoyiblarini izlash; ushbu va o‘z o‘zidan ma’lum narsadan yuqorilarini ko‘ra bilish; odatdagi muammolarni asosiy bog‘liqliklarini qamrab olish; qaror qabul qilishning bir nechta turli yo‘llarini aniq ko‘ra bilish va hayolan eng samaraligini tanlash; barcha masalalar xal etilib bo‘lingan joyda muammoni sezish va mavjudligi; g‘oyaviy hosildorlik; bolaning individual rivojlanish o‘quv jarayonini, innovatsion o‘quv rejasini, dasturni, o‘z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

*Refleksiv tayyorgarlik:* pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar sezgirlikning 3 turini o‘z ichiga oladi: ob‘ektni his etish: real haqiqat bolalarda qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada bolalarning qiziqish va ehtiyojlari namoyon bo‘lishiga, “ularni pedagogik tizimning talablariga mos kelishiga” pedagogning alohida sezgirligi; me’yorni his etish va takt turli pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari ta’sirida bola shaxsida va faoliyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘lchoviga alohida sezgirlikda namoyon bo‘ladi, umuman qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ular ijobiyimi yoki salbiymi, qaysi belgilarga ko‘ra ular haqida so‘zlash mumkin; dahldorlik hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi va o‘quv jarayoniga javobgarlik sezgirligi bilan ta’riflanadi).

YUqoridagilar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta’lim jarayoni yaxlit sub‘ektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi.

Mazmun-ma’nolar tizimi yaxlit sub‘ektning rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi: bola ongida shaxsiy mazmun-mohiyatlar tizimi, pedagogning shaxsiy, hayotiy mazmun-mohiyati va ma’noviy tarkibi.

**Maktabgacha ta’lim tizimining qayta tashkil etilishi** - bu, avvalambor, maktabgacha ta’lim muassasasiga ko‘proq mos keluvchi tartibni yaratish. Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim muassasasi bola ta’lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinishi kerak.

**Maktabgacha davr** – bu bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliylarda yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalahtirish asosida tashkil etiladi hamda o‘yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, engillik bilan o‘zlashtiradi. Maktabgacha ta’lim muassasasining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta’lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta’minalash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir.

Ta’lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta’lim tizimini to‘la boshqarish tizimlarini shakllantirish hamda tadbiq qilish – davlat ta’limi siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’lim sifati ustuvorligi ta’lim siyosatining yadrosi sifatida maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlab, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb qilib qo‘yadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolaning har tomonlama rivojlanishi, unda “komil inson” asoslarini shakllanishi va yuzaga kelish davri – noyob davr deb belgilanganligi tufayli maktabgacha ta’lim, ayniqsa muhim rol o‘ynaydi.

Sifat darajasini e’tirof etish va uni hayotning barcha sohalariga, jumladan, ayniqsa inson va jamiyat bo‘lg‘usi hayotiy faoliyatining qiyofasini belgilovchi va shakllantiruvchi ta’lim sohasiga singdirish inson hamjamiyatining zamonaviy taraqqiyotiga xosdir. Shu nuqtai nazardan ta’lim “madaniyatli inson” yoki sivilizatsiya va aynan jamiyat rivojlanishining ma’lum bosqichida ijtimoiy-madaniy me’yorlarga javob beruvchi inson shakllanishini ta’milovchi madaniy-ijodiy vazifani zimmasiga oluvchi umummadaniy qadriyat sifatida (B.S.Gershunskiy, E.N.Gusinskiy, B.T.Lixachev, E.Sh.Qurbanov, E.A.Seytxalilov, A.I.Subetto va boshqalar) gavdalanadi. Shu jihatdan ta’limni “kvalitetizatsiya” (lotincha qualiyas – sifati) bo‘lg‘usi, zamonaning muhim ijtimoiy jarayonlari dinamikasini, shu jumladan, shaxs rivojlanishi

ustuvorligiga sabab bo‘lувчи zarurat (E.Sh.Qurbonov, E.A.Seytxalilov), jamiyatining “barqaror rivojlanishi” modeliga o‘tish jarayonini ta’minlashga qodir insonni shakllantirishni yuzaga keltiruvchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, ta’limning hamda amalga oshirilayotgan milliy modeli va dasturining xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy rivojlanish, uning intellektual salohiyatini oshishi, jamiyatning gullab yashnashi va taraqqiyotini ta’minlashdagi ahamiyatini ta’kidlar ekan, shunday deydi; “Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi, mubolag‘asiz, bizning strategik maqsadlarimiz – farovon, kuchli demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga erishish uchun asos bo‘lishi lozim”.

Ta’lim sifati va uni nazorat qilish, uzlucksiz ta’lim tizimini to‘la boshqarish tizimlarini shakllantirish hamda tadbiq qilish – davlat ta’limi siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Modelining ustuvor yo‘nalishlaridan biri, mustaqil yirik ilmiy tadqiqot yo‘nalishi va fanning dolzarb vazifasidir.

Ta’lim sifati muammosi umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliv ta’limga muvofiq nazariy tahlil qilingan bo‘lib (R.Sh.Axlidinov, N.I.Bulinskiy, U.I.Inoyatov, V.A.Kalney, Sh.E.Kurbanov, V.P.Panasyuk, M.M.Potashnik, X.F.Rashidov, E.A.Seytxalilov, N.A.Selezneva, A.I.Subetto, U.Q.Tolipov, P.I.Tretyakov, S.T.Turg‘unov, T.I.Shamova, S.E.Shishov va boshqalar tomonidan) bunday boshqaruv, uning texnologiyalarining nazariy, tashkiliy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida ta’lim sifati va samaradorligini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning bazaviy komponentlarining o‘ziga singdirish jiddiy nazariy eksperimental tadqiqotlarga muhtoj.

Nazariy tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim sifati masalasi zamonaviy pedagogika sohasida kam ishlab chiqilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bizga ma’lum adabiyotlardan juda ham cheklangan miqdordagi tadqiqotlarni (masalan, L.I.Falyushinoy) topdikki, ularda mazkur muammoni maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlarining ish vaqtidan oqilona foydalanib va pedagog kadrlar bilan metodik ishlarni tashkil qilish vositasida hal qilishga harakat qilingan.

Afsuski, sifatlri ta’limni ta’minlashning belgilangan jihatlari uni yechish imkonini bermasligi tufayli ushbu muammoni kompleks tadqiq qilishga imkon bermaydi.

Maktabgacha ta’lim jarayoni sifat va samaradorligining o‘zi ham maxsus tadqiq qilinmagan. O‘tgan asrning 90-yillari T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITIning ilmiy xodimlari O.L.Knyazeva, M.Rasulova, R.B.Stirkina,

E.G.Yudinaning maktabgacha ta’lim davlat ta’lim standartini (1994), so‘ngra maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan (1999) ishlari e’lon qilingan bo‘lib, sifat, ta’lim jarayonida tadbiq qilinishi bola rivojlanishni ta’minlaydigan psixologik-pedagogik shart-sharoit va talablar kontekstida ko‘rib chiqilgan. Mualliflar bunday shartlarga ta’lim dasturlari (bolaning ma’lum bosqichda erishishi talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘sghan holda), pedagogning chuqur kasbiy bilimga egaligi, birinchi navbatda uning bolalar, predmet-rivojlantiruvchi muhit bilan shaxsiy – mo‘ljalli o‘zaro munosabatlarini kiritganlar. Keyinroq bir qator olimlarning (T.I.Aliyev, K.O.Beliy, L.A.Paramonov, M.Rasulova va boshqalar) maktabgacha ta’lim sifatini uning protsessual va natijaviy tarkiblari birinchi marotaba va keng tushunishga asoslangan chiqishlari e’lon qilindi.

2008 yilda esa F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, F.N.Vahobovalar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim konsepsiysi” ishlab chiqildi. Barcha mualliflar maktabgacha ta’lim sifatini faqatgina uning psixologik-pedagogik jihatlari nuqtai nazardan ko‘rib chiqishganligini qayd etish qiyin emaski, bu u haqdagi tushunchani yaxshi shakllantirish uchun yetarli emas. Bunga nafaqat psixologiya va pedagogika, balki, falsafa, sotsiologiya, kvalimetriya, boshqaruv fanlariga oid bilimlarning integratsiyalashuviga asoslangan fanlararo yondashuv sharoitidagina erishish mumkin.

Maktabgacha ta’lim muassasasi bozor munosabatlari sharoitida sifatni ta’minlovchi ta’lim tashkiloti sifatida namoyon bo‘lishi ham o‘rganilmagan. Shunday vaqtida o‘ziga xos xususiyatlarini bilmasdan bunday sharoitda ta’lim sifatini takomillashtirish konsepsiyasini yaratish mumkin emas.

Maktabgacha ta’lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalashning tahlili quyidagilar o‘rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- maktabgacha ta’lim muassasalarining ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiyasoslangan mexanizmi mavjud emasligi;
- maktabgacha ta’lim muassasasida shaxs va jamiyatning sifatli ta’lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo‘yiladigan talablar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;
- ta’lim sifatini boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarida sifatni boshqarish obyektini tizimli ko‘ra bilish mavjud emasligi tufayli ta’lim jarayonining alohida tomonlariga lokal ta’sir amaliyoti;
- maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim sifatining zarur darajasini ta’minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o‘zaro aloqalarini o‘rnatish zaruriyati hamda maktabgacha ta’lim pedagogik tizimlarini asosan ular ega

bo‘lgan potensialni qo‘llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo‘naltirish;

- ta’lim sifatini obyektiv baholash zaruriyati hamda tegishli baholash texnologiyalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;

Insoniyat o‘z taraqqiyoti mobaynida har biri o‘z alohida xususiyatlariga ega bo‘lgan bir necha davrlarni bosib o‘tdi.

Sivilizatsiya taraqqiyotining u yoki bu davrining o‘ziga xosligini belgilovchi ustuvor belgi sifatida “inson – inson” va “inson –tabiat” tizimlaridagi munosabatlar maydonga chiqadi.

Tadqiqot yo‘nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’limning maqsadli funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini e’tirof etish imkonini berdi:

Birinchi, salomatlikni asrovchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi jarayoni ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishda va amalga oshirilishda namoyon bo‘ladi, shuningdek, bola vujudining aniq ekologik va ijtimoiy muhitda barqaror hayotchanligini saqlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi;

Ikkinci – rivojlantiruvchi funksiya, ta’lim jarayonining “madaniyatli kishi” asosini shakllantirishga qaratilganligidan iboratdir, bu “...bolaning aqliy, ma’naviy va jismoniy layoqatlarini to‘laqonli” (“Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya”, 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta’minalash (BMT konvensiyasi) bilan to‘la bog‘liqidir;

Uchinchi – tuzatuvchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni malakali tuzatishni amalga oshirish bilan bog‘liq;

To‘rtinchi – bola yoshi rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishida uzviylikni ta’minalash funksiyasi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini ta’minalashga yo‘naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiradi:

- barcha asosiy yo‘llar bo‘yicha bolaning to‘laqonli rivojlanishini ta’minalash prinsipi;

- bolaning yosh va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun maktabgacha ta’limning o‘zini-o‘zi qoplashi prinsipi;

- ta’lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u yetakchi va o‘ziga xos bolalar faoliyat turlarining o‘zaro bog‘liqligiga, bola rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi;

- maktabgacha ta’limning shaxsga qaratilganlik tavfsisi;

- bola tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy “o‘zlashtirishni” ta’minalash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini “ishga solishni” nazarda tutadi;

- ularni amalga oshirish maqsadlari va vositalarining birligi prinsipi.

Maktabgacha bolalikning o‘z qiymatini saqlash nuqtai nazaridan ta’lim jarayonini tashkil etishga va amalga oshirishga qaratilgan sanab o‘tilgan prinsiplarni biz sifatga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’limning qadriyat hosil qiluvchi me’yoriy asosi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’lumot olishiga davlat belgilaydigan me’yorlar va talablar sifati ularning jamiyat ijtimoiy madaniy ehtiyojlariga mosligi, shuningdek, ularning bolani rivojlantirishning to‘laqonligi va yaxlitligini ta’minalash bilan birga maktabgacha ta’lim bolalikning o‘z mohiyatini saqlashga yo‘naltirilganligi bilan aniqlanadi.

Ta’lim jarayonining sifati uning mazmunining, shakl va usullarining sifati, uning ishtirokchilarining o‘zaro hamjihatligi bilan ta’minalanadi.

Resurs ta’moti jarayonining sifati kadrlar, moliya-iqtisodiy, dasturiy-uslubiy, ruhiy, sanitariya-gigiyenik va tibbiy sog‘lomlashtirish, ijtimoiy-pedagogik resurslar va shartsharoitlarning sifatidan tarkib topadi.

Natijalarning sifati bolalarning salomatligi holati, bolalarning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, maktabgacha ta’lim muassasasining yutuqlari kabi elementlarni o‘z ichiga oladi.

MTMda bolalar faoliyatini tashkil etish jarayoni, tizimli sifatning barcha xususiyatlarini va tavsiflarini umumlashgan holda o‘zida tashuvchi maktabgacha ta’lim sifatining tizim hosil qiluvchi birligi hisoblanadi. Bolalar faoliyatining muayyan turlarini shakllantirish jarayonlari sifatining jami bolalarni rivojlantirish jarayonlarining u yoki bu sifatini shakllantiradi (jismoniy, ijtimoiy, bilim olish, badiiy-estetik), ulardan o‘z navbatida ham alohida olingan yosh guruhi, ham butun maktabgacha ta’lim muassasasi yaxlit ta’lim jarayonining sifati hosil bo‘ladi.

**Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari** - ta'limga tarbiyachi va bolaning o'zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o'qitish; qiyin maqsad g'oyasi (bolaning oldiga murakkab maqsad qo'yiladi va uni engib o'tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch signallar); o'z-o'zini tahlil qilish (bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va jamoa bo'lib muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy ravishda bolalarning o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtirishlarini maqsad sifatida belgilab o'qitish vaqtini tanlashi); guruhning intellektual foni (o'qitishning mazkur bosqichida ahamiyatli hayotiy maqsadlarni qo'yish va tarbiyalanuvchilar tomonidan dasturga nisbatan kengroq bilimlar egallah); shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi.

Ta'limning natijalari bolada hozirjavoblik, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo'ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his qilish, ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Ta'lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi) ta'minlanadi; zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi; dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi; jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi.

**Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga ta'lim-tarbiya berishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli ustuvor sanaladi.** SHaxsga ongli yondashishning

maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida “o‘zgartirish emas”, balki “uni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish”dir.

**SHaxsiy yondashuv** ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to‘liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko‘zlaydi.

**SHaxsiy majburiyatlar** - bu shaxs tomonidan “shaxs bo‘lish” ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma’lum fazilatlarning namoyon etilishidir.

Pedagog tomonidan qadriyatlar orasida yo‘nalishini aniqlash uning kasbiy faoliyatini belgilaydi. SHaxsga yondashuv pedagog va bolaga o‘zini shaxs sifatida his qilishiga, ularning imkoniyatlarini aniqlash va namoyon etishga,o‘zini anglab etishga, jamiyat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘ziga ishonish va o‘zini kashf qilish usullariga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshda bola buyumlarning alohida yuzaki xususiyatlarini qabul qilishning yuqori cho‘qqilarini egallaydi, ko‘rgazmali shakldagi amaliy va aqliy vazifalarning echimini topadi. Lekin bola hali buyumlarning ko‘rinishiga ahamiyatsiz bo‘ladi. Bu tabiiy hol chunki buyumlar uning uchun mavjuddir va ular bolani faqat amaliy va aqliy faoliyat ob’ekti sifatida qiziqtiradi. Maktabgacha yoshdagi bola buyumlarning mohiyatini emas, balki ularning tashqi ko‘rinishi va ishlatilishiga qarab ish tutadi. Buyumlarning bizlarga qanday ko‘rinishi bilan mohiyati o‘rtasida katta farq bor. Buyumlarning mohiyati yuzaki emas, u shaxsiy tajriba orqasida yuzaga kelmaydi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinmaydi. U ijtimoiy tashkillashtirilgan o‘quv – dunyonи ilmiy anglash orqali kashf etiladi.

**Tubdan o‘zgartirilgan o‘qitish** – bola va pedagogning hamkorlikdagi tubdan o‘zgartirilgan (ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi) pedagog va bola shaxsini mustaqil tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyati, qaysiki shaxsiy mazmunni hayotiy bo‘shliqda qimmatli ahamiyatga ega bo‘lgan, pedagog va bolaning universallashtirilgan tizimi.Tubdan o‘qitish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

**Ijtimoiy pedagogik yondashuv.** Uning mazmuni shundan iboratki, bola tomonidan insoniyat tajribasining o‘zlashtirilishini ta’minlovchi rivojlanishni amalga oshirish. Bunday yondashuv ta’lim berish jarayonini yakuniy natijaga-bola shaxsining ijtimoiylashuviga erishishga yo‘naltirilgan. Uning mohiyati bola tomonidan jamiyatning ahloqiy, ma’naviy o‘zgarishlarni tubdan isloh qilishdir. Bunday yondashuvda ta’lim tarbiya beruvchi vazifani bajaradi.

**Gnoseologik (bilish faoliyati) yondashuv** o‘qitish jarayoni mohiyatini anglash jarayonidan olib chiqadi va yuzaga kelgan anglash faoliyatini modifikatsiyalaydi (variatsiyalaydi). O‘qitish insonning individual rivojlanishini tezlashtiradi, qaysiki ijtimoiy qonunchilikka bo‘ysunadi. SHu bilan birga u insonning o‘rnatilgan tartibda individual rivojlanishi bilan birga, inson onginging umumiylar tarixiy rivojlanishiga ham bog‘liqdir.

O‘qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash tizimiga yaqinlashtiradi, bolaning shaxsiy tajribalari va o‘qish va o‘qitish davrida yuzaga kelgan tushunchalar orasidagi tafovutlarni chaqiradi.

**Gnoseologik o‘qitishning mohiyati** ta’lim vazifalarini tatbiq etishda o‘qitilayotgan ob’ektning individuallashtirish jarayonini amalga oshirishdan iborat.

**Psixologik yondashuv.** Bu yondashuv uchun insонning rivojlanishi va bilimlarni o‘zlashtirishini psixologik nazariy bilimlarni yuzaga olib chiqishdan iborat.

Aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini inobatga olgan holda (P.YA.Galperin, N.F.Talыızın), o‘qitish birinchi materiallashgan bosqichdan ikkinchisi, ya’ni tayanch tashqi nutq faoliyatida saqlangan bosqichga o‘tadi. Undan so‘ng aqliy faoliyat to‘liq ichki faoliyatda amalga oshiriladigan uchinchi, yuqori bosqichga o‘tadi. Bunday yondashuvda o‘qitishning mohiyati aqliy faoliyat shakllanishining bosqichlariga mos ravishda solishtiriladi. Bunday yondashuvda o‘qitish o‘qitiluvchining shaxsiga yo‘naltiriladi va rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshiradi.

**Akmeologik** (grekcha so‘zdan olingen bo‘lib, yuqori nuqta, yuksalish, yaxshi payt va o‘qish degan ma’noni bildiradi) **yondashuv** o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan xususiyatlarini ochib beradi. Uning asl mohiyati shundan iboratki, o‘qitish shaxsning hayotiy dunyosiga, pedagog va bolaning mavjud hayoti mazmuniga bir tekisda kirib boradi. O‘qitish nafaqat o‘qitiluvchi va va pedagogning fikr va munosabatlarni uyg‘unlashtirib, mazmun maydonini o‘zgartiradi, balki, o‘zaro munosabatlarning yaxlit sub’ektining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga olib keladi. Bunda o‘qitishning o‘zaro tarbiya, o‘zaro ta’lim, o‘zaro hamkorlik, o‘zaro ijodiylikka aylanishiga omil bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida uslubiy tamoyillarni tadbiq etishda quyidagi ta’lim maqsadlari mavjud: tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi, amaliy.

**Ta’limning tarbiyaviy maqsadi** – bola extiyolarini tarbiyalash, pedagogik nuqtai-nazarni tadbiq etish (kattalar tomonidan boshqarilayotgan jamoaviy faoliyatda bola tomonidan o‘zining shaxsiy kechinmalari orqali “ahloqiy bosqichlar”ni bosib o‘tish yo‘li).

Tarbiyaviy maqsadning mazmuni shundaki, bolada ahloqiy qadriyatlar tizimi, dunyoga hissiy-baholovchi munosabat shakllanadi.

**Ta’limiy maqsad shundan iboratki**, bola ta’lim jarayonida o‘zining aqliy ehtiyojarini qondirib, uni o‘rab turgan haqiqatni anglab boradi.

Ta’limning tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi, amaliy maqsadlari o‘qitishning munosib vosita, usul va uslublarini tanlash sharti bilan tadbiq

etiluvchi va uslubiy tamoyillarni belgilovchi asosiy faktor bo‘lib xizmat qiladi. Bolaning rivojlanishi va uning mактабга тауыргарлик көрсаткичлари quyidagilar:

1.Jismoniy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatni rivojlanishining fiziologik darajasi);

2.Psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining xissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);

3.Ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi).

Pedagogning maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini belgilashda 3ta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo‘yicha va refleksiv.

*SHaxs sifatida tayyorgarlik* – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya’ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma’lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash, pedagogik vazifalarni malakali xal etish);

*pedagogik maqsadni belgilash* (tashkilotchilik qobiliyatları -o‘qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg‘ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini kerakli inventar jixozlari bilan ta’minlash; o‘z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish (ertaliklar, adabiy kechalar va boshqalar);

*pedagogik yo‘naltirilganlik* (kommunikativ qobiliyatlar: ma’lum bir ta’lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma’lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma’lumotni berish usul va uslublarini to‘g‘rilash, birovni ishontira olish qobiliyati, “pedagog -pedagog”, “pedagog-ota-onा”, “pedagog-menedjer”, “pedagog-bola” darajalarida kasbiy muloqotni savodli tuzish; bolalar jamoasida ijobjiy psixologik mikroklimatni yaratish va boshqalar).

*Kasbiy tayyorgarlik:* pedagogik takt (intellektual mehnat bo‘yicha loyihaviy qibiliyatlar: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, ajoyiblarini izlash; ushbu va o‘z o‘zidan ma’lum narsadan yuqorilarini ko‘ra bilish; odatdagи muammolarni asosiy bog‘liqliklarini qamrab olish; qaror qabul qilishning bir nechta turli yo‘llarini aniq ko‘ra bilish va hayolan eng samaraligini tanlash; barcha masalalar xal etilib bo‘lingan joyda muammoni sezish va mavjudligi; g‘oyaviy hosildorlik; bolaning individual rivojlanish o‘quv jarayonini, innovatsion o‘quv rejasini, dasturni, o‘z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

*Refleksiv tayyorgarlik:* pedagogik refleksiya (refleksiv qibiliyatlar sezgirlikning 3 turini o‘z ichiga oladi: ob‘ektni his etish: real haqiqat bolalarda qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada bolalarning qiziqish va ehtiyojlari namoyon bo‘lishiga, “ularni pedagogik tizimning talablariga mos kelishiga” pedagogning alohida sezgirligi; me’yni his etish va takt turli pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari ta’sirida bola shaxsida va

faoliyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘lchoviga alohida sezgirlikda namoyon bo‘ladi, umuman qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ular ijobiliyi yoki salbiymi, qaysi belgilarga ko‘ra ular haqida so‘zlash mumkin; dahldorlik hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi va o‘quv jarayoniga javobgarlik sezgirligi bilan ta’riflanadi).

YUqoridagilar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta’lim jarayoni yaxlit sub’ektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi.

Mazmun-ma’nolar tizimi yaxlit sub’ektning rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi: bola ongida shaxsiy mazmun-mohiyatlar tizimi, pedagogning shaxsiy, hayotiy mazmun-mohiyati va ma’noviy tarkibi.

**Maktabgacha ta’lim tizimining qayta tashkil etilishi** - bu, avvalambor, maktabgacha ta’lim muassasasiga ko‘proq mos keluvchi tartibni yaratish. Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim muassasasi bola ta’lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinishi kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Maktabgacha ta’lim konsepsiysi qachon qabul qilingan?
2. Maktabgacha ta’lim konsepsiysi qanday bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?
3. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

#### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

##### **1. Davlatimiz tarixida ilk marotaba “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun nechanchi yil qabul qilingan?**

- A) 1991-yil    B) 1999-yil  
C)        1992-yil    D) 1993-yil

##### **2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” necha bosqichda amaliyotga tadbiq etilmoqda?**

- A) 4 bosqichda    B) 3 bosqichda  
C)    2 bosqichda    D) bitta va umumiy tarzda

##### **3. Shaxs, Davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish qaysi qonuniy hujjatning tarkibiy qismlari hisoblanadi?**

- A) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi  
B) Ta’lim to‘g‘risidagi qonun  
C) Kadrlar tayyorlash milliy modeli  
D) Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom

##### **4. “Maktabgachata’lim” atamasiqachonvaqaysitashkilotto-**

**nidanqabulqilingan?**

- A) 1998-yil Xalq Ta'limi Vazirligi
- B) 1997-yil YuNESKO
- C) 1999-yil YuNESEF
- D) 1997-yil Xalq Ta'limi bo'limlari

**5. Qaysi davlat hujjatining uchmchi yakuniy bosqichi 2018 -2020- yillarga mo'jalangan?**

- A) Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom
- B) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- C) Ta'lim to'g'risidagi qonun
- D) Maktabgacha ta'lim Konsepsiysi

## **7-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARING TARBIYASI**

**Reja:**

1. Shaxs rivojlanishi va tarbiyasi masalalari
2. Maktebeacha yoshdagi bola shaxsi rivoilamshiga ta sir etuvchi omillar
3. Rivojlanishning yosh vaoziga xos xususiyatiari

*Tayanch tushunchalar: bola, shaxs, rivojlanish, tarbiya, ijtimoiy muhit, biologik yondashuv, yosh xususiyatlari.*

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo' ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining pay do bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbayi qarama-qarshiliklarning o'rtaсидаги kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatları ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-

biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o’zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o’ziga munosib o’rin egailaydi. Chunki rivojlanish tarbiyata’siri ostidaboradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rishvabexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvcbi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o’sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shundayqilib, rivojlanish va tarbiya o’rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha ta’lim yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. MTMda ta’lim-tarbiya jarayoni yuqori saviyada tashkil etilsa, bu dargohda ulg‘ayayotgan o‘g‘il-qizlarning ma’naviy olami, aqliy salohiyati shunga munosib tarzda rivojlanadi. Davlatimiz rahbari Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida aytilganidek “Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi”. Demak, bu davrda kichkintoyning dunyoqarashi shakllanishi uchun jiddiy e’tibor zarur. Bu birinchi galda tarbiyachi-murabbiylardan ulkan mas’uliyat talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilanganidek, “...o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish” lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham “maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish” masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama to‘g‘ri tarbiyalash hamda ular ongini shakllantirishga qo‘yiladigan talablar Maktabgacha ta’lim konsepsiyasida ham qayd etilgan.

Yosh bola ongi muayyan muhitda shakllanadi. U qayerda yashashidan qat’i nazar ijtimoiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy sohalardagi voqeliklarni ko‘rib, his etib, anglab boraveradi va bu holatlar bola ongiga so‘zsiz ta’sir etadi. Shu bois, mutaxassislar kichkintoyning o‘sib-ulg‘ayishida maktabgacha bo‘lgan davr alohida o‘rin tutishini aytib o‘tadilar. Zero, bolaning rivojlanishi, ruhiyati va ta’lim-tarbiyasidagi o’ziga xos davrlar bosqichma-bosqich takomillashib boradi. Farzandni to‘g‘ri tarbiyalab voyaga yetkazish birinchi navbatda, ota-onalar zimmasiga tushadi, biroq ta’lim muassasalari mas’ul xodimlari ham har bir bola ongini to‘g‘ri shakllantirishning samarali usullari haqida o‘ylashi va ulardan o‘rnida foydalana olishi zarur.

Turli yoshdagi kichkintoylar bilan muloqotga kirishishda ularning ruhiy olamini tushunish lozim. Bu har bir guruh tarbiyachisidan katta mahorat talab qiladi. Bu borada tarbiyachi va ota-onalar bamaslahat, hamkorlikda ish tutishi maqsadga muvofiqdir.

Yosh bola ongini to‘g‘ri rivojlantirishda uning nutqi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlariga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Mutaxassislar fikricha, bиринчи кичик гурӯҳда болалар 1200-1500, о‘рта гурӯҳда esa 2000 dan ziyod, maktabga borishdan oldin 3-4 mingdan ortiq so‘zni bilishi kerak. Zotan, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning nutqiy rivojlanishi borasidagi ishlarning maqsadi bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli – og‘zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofiq holda egallash, to‘liq ko‘rinishda esa tushunish va faol nutqqa kirishishni o‘rgatishdan iborat.

Bu borada tarbiyachilarining asosiy vazifasi kichkintoylarning imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish sanaladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi alohida e’tibor talab qiladi. Tarbiyachi bolalar bilan faoliyat olib borar ekan, ularning ruhan sog‘lom, baquvvat bo‘lishiga ahamiyat qaratishi, mashg‘ulot va o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil qilishi juda muhim. Bola faoliyatining tabiatи va mazmuni aqliy rivojlanishning obyektiv, ya’ni xolisona mezonlari hisoblanadi.

Mutaxassislar fikricha, tarbiyachi kichkintoyning har tomonlama rivojlanishiga qarab unga yordam beradigan har xil mantiqiy harakatli o‘yinlar tashkil qilishi, ularda kichkintoylarning ijobiy malakalarini mustahkamlab borishi kerak. Ana shundagina bolalarni aqliy faoliyatga tayyorlash birmuncha oson kechadi. Bu yoshdagi bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun rivojlantiruvchi-predmetli o‘yin muhiti va kattalarning ular bilan mazmunan boy muloqot hamkorligi zarur omil bo‘lib hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhit maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Bolajon” dasturi vazifalarini sifatli, uzluksiz, izchil hamda bolalarning yosh jihatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. Rivojlantiruvchi-predmetli muhit bolaning aqliy fikrlash, boshlang‘ich tashabbuskorligini o‘stirish, o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llashga faol harakat qilishidagi asosiy vositadir.

Bola amal qiladigan predmetli muhit undagi bilim va ko‘nikmani amaliyotda qo‘llash uchun bitmas-tuganmas axborot manbai bo‘lishi, bola ehtiyojini qondiruvchi, uni mantiqan fikrlashga, mustaqil ravishda yangilik yaratishga undovchi, undagi malakani yanada takomillashtiruvchi manbaga aylanishi zarur.

Rivojlantiruvchi-predmetli muhit bolalar shaxsini, qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilib qolmay, ularni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil izlanishga, o‘z kuchiga ishonishlariga, yangilikka intilishlariga, yaratuvchanlikka undaydi.

## **Maktabe beacha yoshdagি bola shaxsi rivoilamshiga ta sir etuvchi omillar**

Fanda. odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va itimoiy otshagshp ta sin o'rtasidagi munosabatm belsilashga oid munozara kopdan buyon davometmoqda: insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalar ningta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar yetakchi o'rın tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda *biologik yo 'nalish* deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rın- lardan birini egallab, uning vakillari Arastu, Aflatunlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadilar. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergen, degan g'oyani ilgari suradilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixevoirizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-nasnga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyishadi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Preformizm oqimi va uning vakillari D.Dyul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashdirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishini ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psi- xik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. *Muhit* deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuni- ladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasi (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagog olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lган ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bogiiq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z nav- batida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy ha- yot mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi

mumkin.

Shaxsga *ijtimoiy muhitning* ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nik- ma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qo- tish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzuksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir *to 'rt yondashuv* qaror topgan:

1. *Biologik yondashuv* - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instmkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.
2. *Ijtimoiy yondashuv* - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.
3. *Psixologik yondashuv* - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilalar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi-qiziqishlari, qobiliyatları ijtimoiy hodisa sanaladi.
4. *Yaxlit yondashuv* - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilalar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

### **Rivojlanishnmgyoshvaozigaxosxususiyatiari**

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) vapsixologik xususiyatlar yosh xususiyat lari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatiarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bojadi.

Bolalarning tarbiysiga ga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham,

psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino. Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o’tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlichalib bo‘lishi mumkin.

Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi. pala-partish va chala ishlay- digan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilalar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun tempera- mentning umumiyligi tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim. Temperament - lotinchalib “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatiari majmuyidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatları ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik ka- moloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- go‘daklik(l yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o‘rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)<sup>1</sup>.

*Ilk yosh davri bolalarinmg rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar.* Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to‘qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o‘taydi. Bu davrda ham bola ma’lum darajada tashqi muhit ta’sirida bo‘ladi.

Shuning uchun ham bu ta’siming ijobiy bo‘Mishini ta’minalash lozim.

Go‘dakning vazni tug‘ilganpaytda 3,5 kg, bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo‘yi 60 sm, 6 oylik bo‘l- ganda esa taxminan 7 kg, bo‘yi 64 sm bo‘ladi.

Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta’sirida bo‘lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo‘lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlami idrok etish, oila a’zolarini tanish qobiliyatiga ega boiadi. Shuning uchun ham go‘daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning nutqi va tafak- kuri jadal rivojlanadi. Bola bir

---

<sup>1</sup> Bolajon tayanch dastun - T., 2010. - 5-b.

yoshgacha bo‘lgan davrda dastlabki so‘z- larni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go‘dakni to‘g‘ri pai‘varish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmaslilclari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to^g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-onal bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi. kuzatadi va o^zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Biz bolani nimaga o‘rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya’ni kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari shaxsan tarbiyaning samaradoiigini ta‘minlaydi.

*Ilk yosh guruh* (2-3 yoshli bolalarjning rivojlanish xususiyatlari). Bu davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o‘zgalar tomonidan aytilgan so‘zlarni tushunish qobiliyatları jadal rivojlangan bo‘lsa, 2-3 yoshga kelib, o‘z- galar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so‘z ta’siriga tez beriladi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she’rlar aytish hamda raqsga tushishni o‘rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo‘lib qo‘- shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko‘nik- masi shakllanadi.

Bu yoshdagagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o‘zaro muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Ta‘ lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko‘nikmalarni rivoj- lantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

*Kichik guruh* (3—4 yoshli bolalarjning rivojlanish xususiyati). Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg., bo‘yi 90-95 sm gayetadi. Bolajismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z xatti- harakatlarini idora qilish ko‘nikmasigaegabo‘ladilar. Ulardagimustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakllanadi. 0‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko‘rinishlari namovon bo‘Tadi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mus- tahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o‘yin faoliyati etakchi rol o‘ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo‘T ochadigan ta’limiy mashg‘ulotlar tizimini belgilab berishga yo‘naltirilgan.

*O‘rta guruh* (4-5 yosh bolalarjning rivojlanish xususiyati). Bola to‘rt yoshga yetgach, uning jismoniy o‘sishi birmuncha jadallahshadi, bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 1819 kg bo‘Tadi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi.

Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko‘nikmasi

shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan boiadi. Barcha harakat vaaoliyatlarni o‘zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o‘yinqaroq, o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlantirish, o‘z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlaming mazmunini xuddi mana shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

*Katta guruh* (5—6 yosh bolalarjning rivojlanish xususiyatlari). Bu davrda bolaning bo‘yi 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nis- batan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalaming umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘sishini ta’minlashga alohida e’tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mus- takamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga etganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo‘lishini ta’minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo‘lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Bu yoshdagi bolalaming so‘z boyligining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so‘zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to‘la qondirishi kerak. Bu davrda bolalaming matematik tafakkuri, hisoblash ko‘nikmalari rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

*Maktabga tayyorlov gumhi* (6-7 yosh bolalarjning rivojlanish xususiyatlari). Bola hayotining ettinchi yilda undagi harakatiar ko‘لامи kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o‘zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish. tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120 sm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta’lim olishga, o‘qishga ishtiyoq uyg‘otish lozim. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta’lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta’lim olishga tayyor bo‘lishi kerak.

Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta’lim berish imkoniyatiga ega bo‘ishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darjasи, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta’lim va tarbiya berish uchun loyiq boiganda, u olti yoshli bolalarni o‘qitish huquqiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan mакtablar hamda bu bolalarni o‘qitadigan tarbiyachilar pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta’lim jarayoniga kiritilishi kerak.

## **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. “Individ”, “shaxs”, “individuallik” tushunchalarini sharhlang.
2. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nega qarg‘a o‘ftacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog‘i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o‘rtacha 60-70 yil umr ko‘radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?
  3. Quyida keltirilgan jumlalarni o‘qing va jumlagaga mos keladigan bir so‘z bilan ifodalananadigan javobni toping.
    - 1) o‘zi istamagan holda birovga yomonlik qilib qo‘ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi - ...
      - 1) individlar ichida bir tur -...
      - 2) jamiyatda o‘z o‘rniga ega, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad yo‘tida bir yoki bir nechta kisbini o‘z orqasidan ergashtira oladi -...
    4. Quyida keltirilgan atamalar ierarxiyasiga e’tibor qarating va ularning joylashish tartibiga o‘z munosabatingizni bildiring.
      - 1) rivojlanish;
      - 2) shakllanish;
      - 3) tarbiya;
      - 4) o‘z-o‘zini tarbiyalash;
      - 5) o‘z-o‘zini takomillashtirish;
      1. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta’riflang.
      2. Quyidagi fikrlarga qo’shilasiztni?
        - “Agar bolalar mutazam tanqid qilinsa, aldashga o‘rganadi”;
        - “Agar bolalar qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilinsa, dunyonni go’zal ko‘rishga o‘rganadi”;
        - “Agar bolalarga hurmat bilan munosabatda bo‘linsa, ular olij anob va saxiy bo‘lishni o‘rganishadi”.
      3. Shaxsnинг shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?

4. Shaxs faoliyati haqida so‘zlab bering.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalaming rivojlanish xususiyatlarini tav- siflang.
6. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

## **8-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIMNING VIJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

### **Reja :**

1. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni tashkil etilishi.
2. Maktabgacha ta’limni taraqqiyoti.
3. Maktabgacha ta’lim taraqqiyotida boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Maktabgacha ta’limni boshqarishning maqsad va vazifalari.

*Tayanch tushunchalar:* maktabgacha ta’lim, boshqaruv, taraqqiyot, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, davlat talablari.

### 1. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni tashkil etilishi

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yo‘z berayotgan ijtimoiy - iqtisodiy, ma’naviy - ma’rifiy o‘zgarishlar ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafko’raviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta’lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy g‘oyalarida o‘z aksini topgan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o‘zluksiz ta’lim tizimida bolalarni o‘quv fanlari bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatai tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va ta’lim-tarbiyaishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyatga joriy etish ko‘rsatilgan. Bu vazifalami amalga oshirish o‘zluksiz ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyachilar zimmasiga yuklanadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yuksak umumiyl madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘1 topa bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlaming yangi avlodini shakllantirish, shuningdek har tomonlama kamol topgan, jamiyatda, dav- lat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g‘oya ta’lim tizimi oldiga:

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

-ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shak-llari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalarini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta’lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalaming o‘rni va javobgarligi oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida oladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-onan o‘z farzandining bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo‘lida ta’lim-tarbiya olishini xohlaydi.

Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi zimmasigatushadi.

Maktabgacha ta’lim o‘zluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlashmilliy dasturi» talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama etuk bolalarnitarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologikpedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarnimaktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlashdaota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim bola 6 -7yoshga etguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgachata’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy maktabgacha ta’lim bu - davlat tomonidantashkil etiladigan muassasa bo‘lib, unda maktabgachata’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya beriladi.

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagibolar ta’lim-tarbiyasiga qo‘llanadigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma’naviy va intelluktual jihatdan maktabda o‘qishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim o‘zluksiz ta’limning barcha buginlari bilan mustaxkam aloqa va o‘zviy bog‘liqliqia olibboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy buginidir hamda jamiyat va davlat muxofzasida bo‘lish huquqiga ega” degan qoida mustaxkamlab qo‘yilgan, 45-moddasida voyaga etmaganlar davlat ximoyasida ekani64-moddasida esa “Onalik va bolalik davlat tomonidan muxofaza kilinadi” deb qayd etilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasasi ana shu huquqiy asoslargatayangan xolda oila va jamiyatning bolalarga gamxurlik qilish, milliy va mintatsaviy xususiyatlarnie’tiborga olib, ularni har tomonlama barkamol insonlar

etib tarbiyalash maqsadida tashkil etiladi.

Ijtimoiy maktabgacha ta’lim bu — davlat tomonidan tashkil etiladigan muassasa bo‘lib, unda maktabgacha ta’limyoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya beriladi.

### ***Maktabgacha ta’limni taraqqiyoti.***

O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'larning vujudga kelishi vatarakkiyot boskichlari. O'lkamizda XIX asrning 80-90-yillariga kelib maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizimini vujudga keltirishgoyalar etila boshladi. Usha davorda yashab ijod etgan ma'rifatparvar maxalliy ziyolilar ayollarning ogir axvoliva bolalar nazoratsizligini e'tiborga olib, bu masalaning echimini izlay boshlaydi. Jumladan, 1872 yilda Turkistonda to'zilgan "Jamiyati xayriya" tarkibiga kirganziyolilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunashjoylari, ilk tuguruqjonalarn bilan bir qatorda, ota-onasibo'lman bolalar uchun etimxonalar (dastlabki bolalaruylari) tashkil etildi. Butun Turkiston bo'yicha 150-200nafar bolani qamrab olgan ushbu etimxonalarda ham yasliyoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar tarbiyalangan. 1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istiroxat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" ko'rinishida birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bokchasi uchun istiroxatbog'i xududidan sersoya joy ajratib berilgan bo'lib, buerda argimchoqlar, qayiqar urnatilgan, turli o'yinchoqlar tayyorlangan. Bundan tashqari, maydonchada kattaginiagulzor tashkil etilib, bu erda bolalar o'simliklarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Ammo 1891—1903yillar mobaynida mablag' taqchilligi sababli bog'cha birnecha marta yopilgan.

1896 yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambagallarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalarnito'za boshladi. Yasli ishlarini nazoratchi-uslubchi ayol boshqargan, shuningdek xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasalarda bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan bir katorda, talay hunarlar ham o'rgatilgan. Biroq butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalarsoni 50-60 nafar boladan oshmagan.

Bundan tashqari, mahalliy ziyolilarning sa'y-harakati bilan kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarkand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar (bolalar uylari) tashkil etilgan.

1903 yil fevral oyida Toshkentda "Oilaviy ta'lim" - xor bo'lib qo'shiq kuylash, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlari muayyan jadval asosida olib borilgan.

E'tiborli jihat shundaki, mazkur to'garak doirasidagi ayrim bolalar bog''chalarida ota-onalar talabi bilan franso'z va nemis tillari tekin o'rgatilgan.

1937 yil 3 mayda qabul qilingan "Bolalar bog''chalari to'g'risida"gi qarorda "Qaramogida bolalar bog''chalari bo'lgan xo'jalik tashkilotlari va muassasalari zimmasigategishli ittifoqiosh respublikalarning Sog'rliqni saqlash va Xalq maorifi komissarliklari tomonidan bolalar bog''chalari sanitariya-gigiena qoidalari, binolar, jihozlar, qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash, bolalarni ovqatlantirish va ularga tibbiy yordam xizmati ko'rsatish yo'zasidan belgilangan me'yorlarga rioya qilish vazifasi yuklansin", deb ta'kidlangan.

Jumladan, sog'liqnisaqlash xalq komissarining buyrug'iga asosan:

- bolalar bog''chalariga shifokorlarni biriktirish va kamida 100 ta bola tarbiyalanayotgan har bir bolalar bog''chasiga bitta hamshira bilan ta'minlash, bolalar poliklinika va ambulatoriyalari hamda umumi poliklinikava ambulatoriyalarning bolalar bo'limlari tashkil etib, bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish; - bolalar bog''chalarini birinchi yordam dori-darmonlar bilan ta'minlash;

- musiqa mashg'ulotlarini olib boradigan xodimlar oylik maoshi uchun mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Ikkinchı jahon urushi yillarda O‘zbekistonda bolalar bog’chaları va bolalar maydonchalarining tarmog’i deyarli ikki barobar ko’paydi. 1944 yil 1 yanvariga kelib, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning umumiy soni 54 ming nafarni tashkil etdi. SHu yillarda O‘zbekistonning bolalar bog’chalarida sobiq ittifoqning boshqa respublikalaridan ko’chirib keltirilgan 16000 dan ziyod, shu jumladan, 400 ta ota-onasiz qolgan bola tarbiyalangan.

Xalq maorifi komissarlari kengashning 1944 yil 10 noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlarini kengaytirish hamda xotin-qizlar va bolalarga tibbiy yordam va maishiy xizmat ko’rsatishni yaxshilash tadbirlari to’g’risida”gi qarorida respublikalar raxbaridoralariga bolalar yaslilari, go’daklar uylari, bolalar maslaxat joylari, emizikli bolalarga sut tayyorlab beruvchi muassasalar, bolalar bog’chaları va bolalar uylari tarmog’ini kengaytirish, bolalarni mazkur muassasalarga tuliq jalb etishni ta’minalash vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek yolgiz onalarning o‘z bolalarini tarbiyalashiga ko’maklashish maqsadida bolalar yaslilari va bolalar bog’chalarida ularning farzandlarini kun davomida qabul qilish tashkil etilgan.

Xalq maorifi komissarlari kengashining “Maktabgacha ta’lim muassasalarini yanada rivojlantirish, bolalarni tarbiyalash va ularga tibbiy yordam ko’rsatishni yaxshilash choralari to’g’risida”gi 1959 yil 21 may qarorida quyidagilar nazarda tutilgan:

- maktabgacha yoshdagi bolalarnitarbiyalashning yagona tizimini shakllantirish maqsadida, maxalliy sharoit va imkoniyatlarni e’tiborga olib,maktabgacha ta’lim muassasalarining ikki turi — yasliva bolalar bog’chasini yagona maktabgacha ta’lim muassasasisifatida tashkil etish va ularga xalq maorifi komissarligi raxbarlik qilishi belgilab qo’yilgan;
- bundan buyon barcha turdagı maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalar turar joylarini yaqinlashtirish maktabgacha ta’lim muassasaları namunaviy loyiha asosida ko’rilishi;
- ittifoqiosh respublikalarda maktabgacha ta’lim muassasalarito‘g’risida nizom ishlab chiqish;
- pedagogika fanlari va tibbiyat akademiyalari bilanbirgaliqia maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;
- tarbiyachilar va tibbiy yordam xodimlarini tayyorlash;
- bolalarni ovqatlantirish va maktabgacha ta’lim muassasalarini jihozlar bilan ta’minalash;
- bolalar bog’chasiga qatnamaydigan bolalar uchun bolalar istiroxat bog’ va xiyobonlarida, hovlilarda maydonchalar tashkil qilish va ularni jihozlash ishlari tashkil etish;
- aholi o’rtasida ma’ro’zalar o’qish, suhbatlar o’tkazish, ommaviy-ilmiy adabiyotlarni ko’p nusxada nashr etish;
- bolalarni tarbiyalash va ularning sog‘lig’ini saqlash masalalarini yorituvchi badiiy adabiyotlar nashr etish,kinofilmlar yaratish, radio, televidenie eshittirishlarini kengaytirish kabi vazifalar belgilab qo’yilgan.

### **Maktabgacha ta’lim taraqqiyotida boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim oldida turgan maqsad hamda vazifalarni amalga oshirishda jamoat va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro jamg' armalar, shuningdek tadbirkorlik to'zilmalari faol ishtirok etib kelmoqia.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.

- 1) ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterga ega ekani;
- 2) ta'limning o'zluksizligi va izchilligi;
- 3) o'rta maxsus, kasb- hunar ta'lim yo'naliшини akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyorliligi;
- 4) ta'lim tizimining dunyoviyligi;
- 5) Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olish huquqiga ega ekani;
- 6) ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- 7) har bir shaxsning bilim olishga iste'dodini rivojlantirishni rag'batlantirilishi;
- 8) ta'lim tizimida davlat va ijtimoiy boshqaruviningo'zaro uyg'unligi.

Bu ustuvor tamoyillarga tayangan holda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda quyidagi omillar alohida ahamiyat kasb etadi.

1) *demokratik-xalsparvarlik asosida boshsaruv*. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Xalk ta'limi tibbiy-gigienik profilaktik va sog'lomlashtirish tizimiga doyr qonun hhujjatlari asosida ishlarni tashkil etish.

2) *yakkaboshchilik tamoyili* - ma'lum maqsadga qaratilgan ish usuli bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalari, aralash tusdagi bolalar bog'chasi (uning tarkibiga yillik ish rejasini tulik bajarishga karatiladi;

3) *hamkorlik tamoyili* — barcha masalalarni jamoa a'zolari bilan birgalikda hal etishni nazarda tutadi;

4) *aniqlik tamoyili* - pedagogik metodik va xo'jalik ishlarini aniq maqsadga qaratilgan holda aniq, puxta tashkil qilish va bajarilishini tahlil qilish;

5) *xo'jalikni boshqarish tamoyili* - ish yuritishni to'g'ri tashkil qilish asosida smetadagi mablag'larni to'g'ri taqsimlash, uning bandlarini o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni olib borish;

6) *tanqid va o'z-o'zini tanqid* - rahbar va har bir xodimning o'z ishiga talabchanlik bilan yondoshishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, bajaradigan ishlariga tanqidiy munosabat;

7) *farqlash tamoyili* - ishdagi ijobiy va salbiy jihatlarni va ilg'or ish tajribalarini ko'ra olish;

8) yangilikni his qila olish *tamoyili* - o'z ustida tinimsiz ishslash asosida ta'lim sohasidagi o'zgarish va yangiliklardan xabardor bo'lish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirish va ish faoliyatida qo'llay olish.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha ta'lim tizimining mazmun-moxiyati nimada namoyon bo'ladi?
2. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktabgacha ta'lim tizimiga qanday ahamiyat berilgan?
3. Ijtimoiy maktabgacha ta'limning rivojlanish tarixini yoritib bering.
4. Maktabgacha ta'limning vazifalari nimalardaniborat?
5. O'zluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning qanday tamoyillarini bilasiz?

6. Maktabgacha ta'lim bo'yicha asosiy ish hujjatlarini izohlab bering.

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish tamoyillari qaysi me'yoriy hujjatda belgilab berilgan?
  - a) Ta'lim to'g'risidagi Qonunda;
  - b) Kadrlar tayyorlash milliy dasturida;
  - v) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida;
  - g) Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomda.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 18-moddasi ta'limning qaysi turiga bag'ishlangan?
  - a) o'rta maxsus, kasb-hunar tizimiga;
  - b) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
  - v) maktabdan tashqari ta'lim;
  - g) oiladagi ta'lim va mustakzm ravishda ta'lim olish.
3. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomning maqsadiqaysi bandda to'g'ri keltirilgan?
  - a) bola shaxsini, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, sog'lom va etuqmaktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;
  - b) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom va etuk qilib tarbiyalash;
  - v) 6—7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, aqliy-axloqiy etuk insonlar etib tarbiyalash;
  - g) maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash;
4. Maktabgacha ta'lim muassasasining yuridik shaxs huquqi qaysi qonunda belgilab berilgan?
  - a) Kadrlar tayyorlash milliy dasturida;
  - b) Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomda;
  - v) Ta'lim to'g'risidagi Qonunda;
  - g) Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida.

**9-MAVZU: MAK TABGACHA PEDAGOGIKANING OBYEKTI, PREDMETI,  
MAQSAD VA VAZIFALARI.**

**Reja :**

1. Maktabgacha pedagogikaning obyekti.
2. Maktabgacha pedagogikaning predmeti .
3. Maktabgacha pedagogikaning maqsad va vazifalari .

*Tayanch tushunchalar:* Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari .

## **Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari –**

*Maktabgacha pedagogika* maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bo’lalarini tariyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalaming jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, ularga ta’lim berish muammolarini o’rganadi.

Maktabgacha pedagogika tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o’rganadi va maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uvg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlami ishlab chiqadi. U maktabgacha ta’lim muassasalari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta’minlaydi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi<sup>1</sup>.

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida soha- si bo‘lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, uslubologik asosi, tashkiliy shakl, uslub va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogika kaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi. bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta’limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog’liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatiga - uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tibomi qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos - “o’rgatuvchi”, didasko - “o’rganuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyachi faoliyatları, ta’hmning maqsadi, mazmuni, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’tlari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o’rganadi.

Maktabgacha pedagogika fanining *obyekti* - yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

Maktabgacha pedagogika fanining *predmeti* - maktabgacha ta’lim- tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, uslub va vositalari.

---

<sup>1</sup> Yusupova F. MakTabgachatarbiyapedagogikasi.-T.: O’qituvchi, 1993.- 11-b.

**Maktabgacha pedagogikaning vazifalari** - Maktabgacha pedagogika fani bola shax- sini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shamdi. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'ren tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bola- larni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularni mакtab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi *vazifalarni* bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Har tomonlama uyg'un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish qonunivatlarini aniq- lash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayot- gan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalami umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim pedagogikagasinga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalish-lari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rga- nish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyaiami ishlab chiqish.

## **10- MAVZU: MAKTABGACHA PEDAGOGIKADA ILMIY-TADQIQOT METODLARI**

**Reja :**

1. Maktabgacha pedagogika ning ilmiy tadqiqot uslublari
2. Pedagogik kuzatish uslubi.
3. Suhbat va anketa uslublari.
4. Intervyu va test uslubi.
5. Pedagogik tahlil va pedagogik tajriba uslublari.
6. Bolalar ijodini o'rganish uslubi va matematik-statistik uslub.

## *Tayanch tushunchalar: metod, uslub, pedagogik kuzatish, tajriba, intervju, test*

Maktabgacha pedagogika fani rivoji muayvan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqotishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko’rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subpektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan uslublarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot uslublari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subpektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tizimli-uslubologik yondashuvga asos- lanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniq- lashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiyligi aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta’min- lashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta’minalashdagi o‘rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e’tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga riosa etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot uslublar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan taslihislash va uning natijalarini aytib o‘tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda. maktabgacha pedagogika yo‘nalishida, tadqiqotlarni olib borishda quvidagi uslublardan foydalanimoqda:

1. Pedagogik kuzatish uslubi.
2. Suhbat uslubi.
3. Anketa uslubi.
4. Intervyu uslubi.
5. TaTim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish uslubi.
6. Test uslubi.
7. Pedagogik tahlil uslubi.
8. Bolalar ijodini o'rganish uslubi.
9. Pedagogik tajriba uslubi.
10. Matematik-statistik uslub.

*Pedagogik kuzatish uslubi.* Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba-avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi, Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izchil va tizimli amalgalashirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, bola shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa. mazkur uslubning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatogayo'1 qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

*Suhbat uslubi.* Bu uslub pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savol-laming mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida awaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiyl munbsabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini prkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

- 7) savollarning aniq, qisqa va rav<sup>han</sup> berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

*Intervyu uslubi* respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirili- shini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jamyonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bilqirilishi uning samarasini oshiradi.

*Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish uslubi.* Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlami tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur uslub O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rGANISH, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yoT qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va maktabgacha taTim muassasasi pedagogik tajnbasini oshirish maqsadida qoTlaniladi.

TaTim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi huj-jatlar quyida- gilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh jurnallari, bolalaming shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yigTlishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasи, o'quv- tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, taTim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur uslub muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samara- dorligi darajasi, bolalarda hosil boTgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi. ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'Tganishda muhim aha- miyatga ega.

*Bolalar ijodini o'rGANISH uslubi.* Mazkur uslub bolalaming muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qoTlaniladi. Uni qoTlashda bolalaming ijodiy ishlari - rasmlar, kons- truksiya ishlari, qo'1 mehnati asosida yaratilgan buyumlar muhim vosita bo Tib xizmat qiladi. Uslubning afzalligi shundaki, u ma'lum bolaga xos boTgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

*Pedagogik tajriba* (eksperiment - lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish") *uslubi.* Pedagogik tajriba uslubidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rGANISH, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega boTa olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo uechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba maTum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur uslubdan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning sama- radorligini aniqlashi

hamda unga baho bera olishi zarur.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot uslublari haqida fikrlaringizni bayon qiling.
2. Pedagogik kuzatish uslubi qanday olib boriladi?
3. Suhbat va anketa uslublarini tushuntirib bering.
4. Intervyu va test uslubining afzalliklari nimada?.
5. Pedagogik tahlil va pedagogik tajriba uslublarini-chi?
6. Bolalar ijodini o'rganish uslubi va matematik-statistik uslub haqida nimalarni bilasiz?

### **11-MAVZU: MAK TABGACHA PEDAGOGIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI.**

#### **Reja :**

1. Maktabgacha pedagogikaning asosiv kategoriyalari
2. Bilim. Ko'nikma. Malaka tushunchasi
3. Ta'lif ikki tomonlama tavsifga ega jarayon.
4. O'qitish - pedagogik faoliyat sifatida
5. O'qish- ta'lif oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini egallashidir.

*Tayanch tushunchalar:* Bilim, ko'nikma, malaka, ta'lif, Rivojlanish ,O'qitish, O'qish.

Bizga yaxshi ma'iumki, har bir fan ozinmg tayanch tushunchalan, qonuniylatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kate- goriya deb ataladi. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy kategoriyalari maktabgacha ta'lif muassasasi tarbivalanuvchisi shaxsi kamolotini ta'minlash, ta'lif va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratiigan jarayonlaming umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagllar kiradi: ta'lif (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish.

Ta'lif - tarbiyalanuvchilarini nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lif o'zida uch asosiy elementni aks ettiradi: bilim, ko'nikma va maiaka.

*Bilim* - tarbiyalanuvchining ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar

ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmuyi.

*Ko‘nikma* - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

*Malaka* - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashti- rilgan shakli.

Ta’lim ikki tomonlama tavsifga ega bo‘lib, o‘qitish va o‘qishni o‘z ichiga oladi.

*O‘qitish* - pedagogik faoliyat bo‘lib, u bilim, ko‘nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qi- lishdir.

*O‘qish* - ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash- dagi amaliy faoliyatidir.

*Tarbiya*- pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyanı tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma’nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma’noda tarbiya shaxsga jamiyat- ning ta’sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg‘unlashadi.

Tor ma’nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilganfaoliyatitushuniladi. Ushbu holatdapedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya - muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ma’ lumot-ta’ lim-tarbiya natijasida o‘ zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmuyi.

*Shakllanish* - pedagogikaning asosiy kategoriylaridan biri bo‘lib, ko‘pincha “shaxsning shakllanishi” tarzida ishlataladi. Jumladan, pedagog olim Yu.K.Babanskiy shaxsning shakllanishi pedagogikaning asosiy kategoriylaridan biri bo‘lib, muhit, irsiyat, tarbiya ta’sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasidir<sup>1</sup>, degan ta’rifni beradi. V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlarning fikricha, shakllanish - hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta’sirida inson rivojlanishining muhim shakli. Shaxsning shakllanishi - bu ijtimoiy lashuv, tarbiya va o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayoni va natijasi.

*Shakllantirish* -“aniq shaklga kiritish, tugallanganlik”ni bildiradi<sup>2</sup>.

Bizningcha, shakllanish pedagogik tushuncha sifatida zamonaviy yondashuv asosida I.P. Podlasiy tomonidan to’liqroq ochib berilgan: “Shakllanish - hech qanday istisnosiz omillar - ekologik, ijtimoiy, iq- tisodiy, pedagogik va boshqalarning ta’sirida insonning rivojlanish jarayoni, Shakllanish — undan keng foydalilanlayotganligiga qaramay, hali to ‘ liq o‘zlashtirilmagan pedagogik kategoriya, Shakllanishning mazmuni ba’zi holatlarda juda qisqarib ketadi, ba’zan esa, haddan

1 Babanskiy Yu.K., Slastenin V.A., Sorokin N.A., Malkovskaya T.N., Belozertsev E.P., Polyakov V.A., Grishin D.M. Pedagogika / Pod. ped. Yu.K. Babanskogo. - M.: «Prosveshenie», 1991. - 10-b.

2 Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Obshaya pedagogika. / Pod. ped.. V.A. Slastenina: V2 ch. - M.: «VLADOS», 2003. -Ch.I. -91-b.

tashqari kengaytirib yuboriladi. Avval nashr etilgan pedagogik adabiyot- larda shakllanish atamasi ba'zan boshqarilmaydigan, shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi tasodiflami aniqlash uchun qo'llanilgan. Masalan, pedagogika qo'llanmasining taniqli muallifi P.N. Gruzdev shakllanishni stixiyali tarbiya - “ongli faoliyatdan mustaqil tarzda odamlarga ta'sir etuvchi turli shart-sharoitlar” deb nomlashni taklif etgan”<sup>1</sup>.

*Rivojlanish* - shaxsnинг fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Boshqacha aytganda, rivojlanish deganda tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga aytildi.

Rivojlanish - bu yangi sifat holatiga o'tish, harakat va o'zgarishlar jarayoni. Maktabgacha pedagogikada rivojlanish haqida gap ketganda yoshga doir (maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda rivojlanishning o'ziga xosliklari va qonuniylari), individual (rivojlanishning individual o'ziga xosliklari), shaxsiy (bolada shaxsiy sifatlarning yuzaga kelishi va ularning o'ziga xosliklari) rivojlanishni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriylarini sanang va mohiyatini yoriting
2. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

## **12-MAVZU: MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**

### **Reja :**

1. Maktabgacha pedagogikaning falsafa fanlari bilan bog'liqligi
2. Maktabgacha pedagogikaning iqtisodiyot bilan bog'liqligi
3. Maktabgacha pedagogikaning fjamiyatshunoslik fanlari bilan bog'liqligi
4. Maktabgacha pedagogikaning fiziologiya va gigiyena fanlari bilan bog'liqligi
5. Maktabgacha pedagogikaning psixologiya fanlari bilan bog'liqligi

---

1 Podlsiy I.P. Pedagogika. -M.: Visshee obrazovame, 2008. - 60-61-b.

*Tayanch tushunchalar: falsafa, iqtisod, sotsiologiya, psixologiya, etika, estetika, fiziologiya, gigiyena*

Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlari tayaniadi. Ana shu nuqtayi nazardan Maktabgacha pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtaida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. *Falsafa* — shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. *Iqtisod* - maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. *Sotsiologiya* - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. *Etika-bola*. shaxsi ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. *Estetika* - shaxsi tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'naliishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. *Fiziologiya* - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, ana- tomik xususiyatlarining inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. *Gigiena* - bolalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. *Psixologiya* - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy- irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. *Tarix* - maktabgacha pedagogika fani taraqqiyoti. taTim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga ohsh, shuningdek, xalq maktabgacha pedagogika g'oyalarni kelgusi avlodga uza- tish uchun yo'naltiriladi.

10. *Madaniyatshunoslik* - bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasawurni shakllantirish, ularda madaniy xulq- atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. *Tibbiy fanlar* - shaxsning fiziologik-anatomik jihatdan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. “Maktabgacha pedagogika” tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Maktabgacha pedagogika fani nimani o‘rganadi?
3. Maktabgacha pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog’liqligini izohlang.

### **13-MAVZU: JAHON MAMLAKATLARI TA’LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA TA’LIMNING TUTGAN O‘RNI**

#### **Reja :**

1. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida maktabgacha ta’limga zamonaviy yondashuvlar.
2. Janubiy koreya ta’lim tizimida maktabgacha ta’limga e’tibor.

*Tayanch tushunchalar:* xorijda maktabgacha ta’lim, Yaponiya, Janubiy Koreya, kanada, Germaniya, Belgiya, Fransiya.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quv metodik majmualarniishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim muassasalarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha sohaga oid bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. SHu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli, «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son qarorlari, «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.

Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko‘rib chiqamiz.

**Yaponiya** - juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog’liqdir.

Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta’lim tizimi

Maktabgacha ta’limga YAponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o’zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. YApon ayollar uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

YAponlar bolaning erta voyaga etishi tarafidordirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg‘u beradi. Masalan, 1 yoshda – o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish, 2 yoshda – amaliy san’at qo‘l mehnatini ko‘rsatish, 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o‘rgatish, 5 yoshda – liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o‘rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar.

O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni engishga o‘rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

YAponiya bog‘chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruuhlar – “xan”larga bo‘ladi. Bu bolalarga bog‘chada “o‘z ish o‘rni” ajratiladi, ular o‘z xanlariga nom tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o‘rgatadilar. Bu guruhdagi har bir bola guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta’lim bosqichida ham qo‘llaniladi. O‘rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko‘nikish uchun har 5 oyda o‘zgartirib turiladi. YAponiya bog‘chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog‘chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat.

SHuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o‘yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg‘otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang‘ich ta’limga erta qabul qilishga o‘tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog‘chasiga jalb qilish ko‘zda tutilmoqda.

Bolalar bog‘chasi YAponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Bolalar bog‘chasing asosiy vazifasi-bolani mакtabga tayyorlashdir. Bu erda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tiladi.

Individuallik, u qanchalik yaxshi bo‘lmashin, bolalarni o‘ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang‘ich ta’lim “syogakko” deb nomlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi, maktablar quyidagicha bo‘lingan:

1. Boshlang‘ich maktab - 6 yil.
2. O‘rta maktab - 3 yil.
3. YUqori maktab - 3 yil.

Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi.

**Bolalar bog’chalari.** Ta’limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi esa munisipiial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi davlatnikidir.

Bolalar bog’chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat. Bolalar bog’chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi SHuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi.

**Boshlang‘ich ta’lim -“syogakko”.** Boshlang‘ich maktab ta’limning ilk 6 ilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi.

#### **Yaponiyada o‘rta va yuqori maktab tizimi. Kichik o‘rta maktab – tyugakko.**

Boshlang‘ich maktabni tugatgan o‘quvchi o‘qishni kichik o‘rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san’at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo‘jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o‘quvchilar chet tili, qishloq xo‘jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.<sup>[1]</sup>

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta’minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa bolalar uy yumush- laridan ozod etiladilar. Ota-onalar maktab hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etadilar, o‘z farzandlariga barcha sohada o‘rnak-namunadirlar. Ular bolalari o‘qishida yordam berish uchun juda ko‘p o‘qiydilar, maktab o‘quv dasturini mukammal o‘rganib oladilar.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas’uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo‘lib o’sishlari uchun oila sulolasи va davlat oldida o‘zlarini mas’ul deb hisoblaydi»lar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko’plab metodik qo’llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko’plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Maktabgachatarbiyayoshidagibolalaruchunota-onalaroyigao’rtacha 2-3 kitobsotibolishadi. Shu yoshdagи bolalar uchun oyiga 40 ta jurnal nashr etiladi, ota-onalarning mutloq ko‘pchiligi bu jurnallariga obuna bo‘lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o‘qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko‘nikmalarini egallashi zarur. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo‘lib parta ustida kitob javoni, yoritqich, soat, qalam qog’oz mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo‘lib qolgan taqdirda ota-onasini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o‘rnatilgan.

Turlita'limiyko'nikmalar nibolalar ongigasingdirish yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6-sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala bilishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Mana shulardan yapon muallimi o'z kasbiga qo'shimcha ravishda yana nimalarni o'rganishi lozimligini bilish qiyin emas. O'qituvchi qo'shiq aytishi, cholg'u asboblarida kuy chala olishi, notiqlik san'atini bilishi, yaxshi sportchi bo'lishi kerak.

## **GERMANIYA DAVLATI TA'LIM TIZIMI.**

Germaniyada mavjud bo'lган asosiy qonun har bir fuqaroga o'z shaxsini erkin kamol toptirish, qobiliyatlar va qiziqishiga qarab maktab, o'quv yurti va kasb tanlash xuquqini beradi. Ta'lism sohasidagi siyosatning makqsadi shundan iboratki, u har bir insonni optimal darajada qo'llab-quvvatlash, uning manfaatlariga javob beradigan malakaviy tayyorlarlikdan o'tish imkoniyatini yaratadi. Har bir fuqaro hayoti davomida umumiylashtirish, kasbiy va siyosiy ta'lism olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ta'lism sohasidagi siyosatning asosiy yo'naliishlaridan biri yosh avlodni demokratik mamlakatda mas'uliyat hissiga ega mustaqil fuqarolar etib tarbiyalashdir.

Bolalar bog'chasi. Bolalar bog'chasi — olmonlar boshlab bergen va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonidan o'rganib, qabul qilingan muassasadir. U davlat ta'lism tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. Bolalar bog'chasi ta'sischilar cherkov, xayriya uyushmalari va jamoalar, ba'zida — korxonalar va ittifoqlardir. Tarbiyaviy ishlarning eng muhim jihat — jamiyatda yashashga qobiliyatli, mustaqil insonni kamol toptirish maqsadida guruhda o'qishdir. Bolalar bog'chalari oiladagi tarbiya ni qo'llab-quvvatlashga, shuningdek boshqa keyingi hayoti va ta'lism olishi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish uchun uning rivojlanishidagi kamchiliklarning o'rnini to'ldirishga qaratilgan. Odatda, bolalar bog'chasida bolalar tushlikka qadar bo'ladilar. Faqat ba'zi birlarida ular kun bo'yи bo'lishlari mumkin. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun huquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

**Germaniya Federativ Respublikasi** 16ta mustaqil Federativ erlar (viloyatlar) dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lган ta'lism tizimiga ega. Ta'lism muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lism dasturiga tegishli bo'lган davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'limga joriy qilish va boshqarish Federal erlar (FE) xukumatining konpetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiylashtirish ham bor: ta'lism vazirligi ta'lism siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag' ajratadi.

Umuman olganda Germaniya ta'lism tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.<sup>[2]</sup>

1. Elementar ta’lim: məktəb ta’limining 1-bosqichiga tegishli bo‘lib, məktəbgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog‘chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo‘lib, bu erlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko‘ra ixtiyoriydir.

2. Ta’limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang‘ich məktəb, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O‘qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta’limning maqsadi – bolalarga ta’lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu məktəbda ta’limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta’lim I ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) “yo‘nalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko‘ra o‘quv muassasalarining kerakli turiga yo‘naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O‘quvchilar ta’lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi

### **Koreya Respublikasi ta’lim tizimi.**

Koreyaning zamonaviy ta’lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo’lgan 1945 – yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo’lsak koreyslarda ta’lim tizimi 1894 yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan deyish mumkin. 1881 yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g‘arbliklar harbiy san’atdan dars bera boshlaydilar. Bu o‘z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta’limini yuzaga kelishini ta’mindadi. Garchi 1882 – yili maxsus qo’shin uchun darslar to’xtab qolgan bo’lsa – da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta – sekinlik bilan Gwanghev, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta’lim muassasalari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

1894 – yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta’lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895 – yildan boshlang‘ich maktablar va məktəb uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900 – yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan “Xususiy maktablar to’g’risidagi qonun” qabul qilindi. 1910 – yili Koreya va Yaponiya o’rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponianing rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko’rsatdi. Yapon mustamlakachilar Koreyaning ta’lim tizimini keskin o’zgartirish yo’lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo’yildi. Bu davrda 1911 – yil 23 – avgustda qabul qilingan “1 – Choson ta’lim buyrug’i” amal qildi. Unga ko‘ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta’lim siyosati olib borildi. Ya’ni mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang‘ich ta’lim olar, o’rta va oliy ta’lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o’ylangan rejalar qatoriga kiradi. Ammo 1919 – yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo’ldi va buyruqqa o’zgartirish kiritib, boshlang‘ich ta’lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922 – yil 4 – fevralda “2 – Choson ta’im buyrug’i” qabul qilindi. Bu buyruqqa ko‘ra, ta’lim muddatlari uzaytirildi. Ya’ni, oddiy maktablarda ta’lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta – sekinlik bilan

universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924 – yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. Shu yili Xitoy – Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi. Oddiy maktablar va boshlang'ich maktablar, yuqori va o'rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943 – yil 3 – avgustda “4 –Choson ta'lim buyrug'i imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta'lim sohasidagi zo'ravonligi kuchaydi. Jumladan, o'rta va yuqori maktablarda ta'lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturdan olib tashlandi. Uning o'rniga yapon tili darslari kiritildi. Koreyanı yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944 – yilgi Koreya Umumiyy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor – yog'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945 – yili Ikkinci Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreyada tabiiyki boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo “Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi” tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadbiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 – yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981 – yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992 – yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi.

Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 – martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. O'quv yili esa 1 – mart Koreya Respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 – martdan boshlandi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'im 1yil ikki semestrga bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limdan keyihgi “zinapoya” vazifasini o'rta ta'lim bajaradi. O'rta ta'lim Koreya Respublikasida 3 yil davom etadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 – martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilar kiritish mumkin. O'rta maktab tugatilgan yuqori maktablarda ta'lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: Davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiyy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), Xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga

bo'linadi: Umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot ), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lif vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi.

### **JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI**

Janubiy Koreya Respublikasining ta'lif tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan.<sup>[4]</sup>

Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari "inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligida" deb ta'kidlashadi. Konfutsiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati xozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi.

